

9 JUNE



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES

INTERNATIONAL CONFERENCE IN

TURKEY

THEORY AND ANALYTICAL
ASPECTS OF RECENT RESEARCH

zenodo OpenAIRE

doi[®]
digital
object
identifier

OPEN  ACCESS

info.interonconf@mail.ru

www.interonconf.org



TURKEY International scientific-online conference:
"THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH"

Part 37
June 9th

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

ISTANBUL 2025

~ 2 ~

TÜRKİYE Uluslararası Bilimsel-Çevrimiçi Konferans

THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH: a

Uluslararası bilimsel çevrimiçi konferansın bilimsel çalışmalarının toplanması
(9 June 2025) - Türkiye, İstanbul : "CESS", 2025. Bölüm 37, - 151 s.

Genel Yayın Yönetmeni:

Candra Zonyfar - Doktora Üniversitesi Buana Perjuangan Karawang,
Endonezya Sunmoon Üniversitesi, Güney Kore.

Yayın Kurulu:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, Turkish, казақша, uzbek, limba română, кыргыз тили, Қазақ тілі

Koleksiyon, Uluslararası Bilimsel çevrimiçi konferansa katılan bilim adamları, yüksek lisans öğrencileri ve öğrencilerin bilimsel araştırmalarından oluşmaktadır.

"**THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH**".
9 Haziran 2025'te İstanbul'da gerçekleşti.

Konferans bildirileri, yükseköğretim kurumlarında bilim adamları ve öğretmenler için önerilir. Lisansüstü öğretim süreci, lisans ve yüksek lisans dereceleri almaya hazırlık dahil olmak üzere eğitimde kullanılabilirler. Tüm makalelerin incelemesi uzmanlar tarafından yapılmıştır, materyaller telif hakları yazarlarına aittir. İçerikten, araştırma sonuçlarından ve hatalardan yazarları sorumludur.

TABLE OF CONTENTS

Kamalov Miyirbek Murat o'g'li LABORATORIYA SHAROITIDA SHOLI NAV NAMUNALARINI SHO'RGA BARDOSHILIGINI ANIQLASH	7
Shukurov Eldor Narzulla o'g'li MDH MAMLAKATLARIDA TOVAR BELGILARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MUHOFAZA QILISH VA MUHOFAZA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	13
Shukurov Eldor Narzulla o'g'li MDH DAVLATLARIDA TOVAR BELGILARIDAN FOYDALANISHNI TA'MINLOVCHI HUQUQ NORMALAR TIZIMINING VUJUDGA KELISH TARIXI VA RIVOJLANISH TENDENSIYASI	18
Mawlenkulova Saltanat IBROYIM YUSUPOV VA O'ZBEK SHE'RIYATI	23
Abdunazarova Nazira Dilshodovna THE MANIFESTATION OF METAPHOR IN DISCOURSE AND ITS PRACTICAL COMMUNICATIVE FUNCTIONS IN COGNITIVE LINGUISTICS	27
Pirmaxmatov Shohjahon Avaz o'g'li Inoyatov Javohir Ne'matillo o'g'li O'ZBEK TILIDAGI IBORA VA MAQOLLARDA SIGIR LEKSEMASINING QO'LLANILISHI	30
Ismoilova M. O. Xabibullaeva Sh.A. NODIVERGENT KO'RINISHDAGI NOCHIZIQLI PARABOLIK TENGLAMA CHEGARALANMAGAN YECHIMLARINI TADQIQ QILISH	32
Tolipova B.M Navruzova R.S YUQORI NAFAS YO'LI KASALLIKLARI BILAN OG'RIGAN O'SMIR QIZLARDA HAYZ SIKLINI BUZILISHINI PROGNOZLASH, PROFILAKTIKA QILISH VA DAVOLASH	37
Farxodova Nigina Muminjon qizi MAKTAB SHAROITIDA ELEKTRON KUNDALIK VA ELEKTRON JURNALLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	39
Jo'rayeva Go'zal Qodirovna SO'Z TURKUMLARINI O'RGATISH METODIKASI ("OT" SO'Z TURKUMI MISOLIDA)	45
Tursunova Madinabonu Rustamjon qizi Ismoilova Shirinzabon Rustambek qizi Ahmedova Shahnoza Baxtiyorjon qizi ANEMIYA VA UNI DAVOLASHDA YANGICHA YONDASHUV HAMDA ZAMONAVIY METODLAR	52
Mustafayeva Saidakhon Juma kizi	55

MODERN METHODS AND EFFECTIVE APPROACHES IN TEACHING GERMAN AS A FOREIGN LANGUAGE				
Ne'matova Nigora Soliddin qizi “BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA METODILARNING ROLI”				58
Orazbaeva Periza Kongratbaevna B.ERNAZAROV PROZASÍNDA SYUJET QURÍW ÓZGESHELIKLERİ				62
Ikmetova Ziyuar Qoniratbay qızı T.JÝEMURATOV LIRIKASÍNDA KÓRKEMLIK IZLENISLER				75
Jalolova Xursandoy Odiljonovna TA'LIM BOSHQARUVIDA KOMMUNIKATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI				87
Ermatova Mexriniso Bekmuradovna TALABALARNI KASHTACHILIKKA OID AMALIY FAOLIYATGA O'RGGATISHNING INNOVATION TECHNOLOGIYALARI				93
Бадалова Хамидахон Ҳакимжоновна ФРАЗЕОЛОГИЗМ ТУРЛари ВА УНИНГ ТИЛЛАР ЎРТАСИДАГИ МУНОСАБАТИ				98
Badalova Xamidaxon Xakimjonovna FRAZELOGIZM VA MADANIYAT: O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA ANTROPOTSENTRIK IFODALAR TAHLILI				101
Salikhova Alina M. LAOS TOWARDS A DIGITAL FUTURE: GROWTH FACTORS AND BARRIERS				104
Fozilov Asatullo Gaziyeva Saida Turgunovna MAIN TYPES OF ENGLISH DICTIONARIES				108
Hamraqulova Xadichabonu Yoqubjon qizi BOSHLANG'ICH SINF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI ERTAKLAR ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGGATISH				112
A.T.Baltayeva Pirnazarova Sadoqat Hamdam qizi MUAMMOLI VAZIYATLARNI TASHKIL QILISH USULLARI				116
Казакбаев Бахыт Сейлбекович Аллебеков Бердаҳ Кабылбекович Мадияров Сапажон Камоладдин уғли ҚОРАҚҮЛ ҚҮЙЛАРИНИНГ ТИРИК ВАЗНИ КҮРСАТКИЧЛАРИ НАТИЖАЛАРИНИ ҮРГАНИШ				122
Sattorova Dilshoda Yuldashevna DIDACTIC BASES OF USING THE TECHNOLOGY OF PROBLEM-BASED LEARNING IN TEACHING PHYSICS				126
Akramova Sabrina O'ZBEKİSTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGI VA XALQARO				133

SHARTNOMALAR	
Toshtemirov Xojiakbar Qahramon o`g`li ONLINE PLATFORMALARDA TA'LIMNING O'RNI VA UNING ILMIY ASOSLARI	138
Rajabova Dilfuza Abdumajitovna BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARNING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH	146
Ражабова Дилфуза Абдумажитовна Рустамова Райхона Хасанбой қызы Хайдарова Рухсора Хасан қызы ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ ПЕДАГОГОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ.	150

UO'K:631.52+633.18+631.527+631.527.8

LABORATORIYA SHAROITIDA SHOLI NAV NAMUNALARINI SHO'RGA BARDOSHLILIGINI ANIQLASH

Kamalov Miyirbek Murat o'g'li

*Qoraqalpog'iston Qishloq xo'jaligi va
Agrotexnologiyalar instituti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Maqolada laboratoriya sharoitida sholi nav namunalarini sho'rqa chidamliliginan aniqlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, eng chidamli namuna va liniyalar kelgusida sho'rqa bardoshli sholi navlarini yaratish uchun muhim seleksion material sifatida tavsiya etilganligi, tanlab olingan nav namunalar kompleks foydali xossalarga ega bo'lib, ular orasidan sho'rланishga bardoshli donorlarni ajratib olinganligi hamda yangi sholi nav namunalarining genetik axborot bazasi yaratilganligi qayd etilgan.

Kalit so'zlar: laboratoriya, sholi, nav namuna, sho'rqa bardoshli, unish foizi, moslashish qobiliyati, balandligi, ildiz uzunligi, ildizlar soni, ildiz tizimi.

KIRISH

Bugungi kunda sholi navlari seleksiyasi borasidagi ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Biz o'z tajribalarimizda sholi nav namunalarining sho'rqa bardoshliligiga alohida e'tibor qaratdik. Laboratoriya sharoitida sholi nav namunalarini sho'rqa bardoshliliginan aniqlash borasida tadqiqotlarni olib bordik.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqotlarda sholi nav namunalari urug'larining nacl eritmasida unib chiqish qobiliyati tahlil qilindi. Har bir nav namunaning nomi va uning urug'larining unish foizi hisob-kitob qilindi. Urug'larning sho'rli muhitga qanday adaptatsiya hosil qilishi va ularning unib chiqish qobiliyatini tahlil qilishda ahamiyatlidir. Foiz bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan D-67 (otb.C 154-20) (87,7 %) va D-6 (65-02-2) (87,0 %) kabi nav namunalarning urug'lari yuqori foizda unib chiqishi namoyon bo'ldi. Bu ko'rsatkichlar sho'rqa nisbatan yuqori moslashuvchanlikni va sho'rangan muhitda juda yaxshi o'sish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'riflaydi. O'rtacha foizdagi unib chiqishiga ko'ra, bir qator sholi nav namunalari o'rtacha unish foizi keltirildi. Masalan, D-38 (D-133) (86,5 %), D-16 (D-138) (83,7 %) va D-15 (D-158) (82,5 %) kabi nav namunalarlar sho'rli muhitda o'rtacha darajada unish foizini ko'rsatgan,

shunday bo'lsa-da, ushbu nav namunalarning sho'rланishga chidamlilik xususiyati yuqori hisoblanadi.

Past unish foizi Nukus-2 (30,0%) va D-148 (otb Lazurniy) (30,0%) kabi navlar esa sho'rli muhitda past unish foizini ko'rsatadi. Bu navlar sho'rli muhitga kam moslashadiganligini va ularning sho'rga nisbatan sezgirligini ko'rsatadi. YA'ni, ular sho'rga moslashishda zaif bo'lib, unga moslashish uchun ko'proq vaqt yoki sharoit talab qilinadi.

Past foizlar va moslashish qobiliyatiga ko'ra, jadvalda D-51 (K-16-70) (4,2 %), D-189 (otb. K-111-20) (10,0 %) va D-193 (otb. C90-20) (8,5 %) kabi navlar sho'rli muhitda minimal unish foizini ko'rsatadi. Bu navlar sho'rga nisbatan eng zaif hisoblanadi, chunki ularning urug'lari unib chiqishi kam bo'lganligi ham bundan dalolat beradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, sholi urug'larining sho'rli muhitdagi unumdorlik darajasi D-67 va D-6 nav namunalari sho'rga nisbatan ko'proq moslashgan bo'lib, yuqori unish foizini ko'rsatdi. Boshqa navlar esa past unumdorlikka ega va sho'rga moslashishda muammolarga duch keldi. Bu esa seleksiya jarayonlarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, sho'rga moslashuvchan sholi nav namunalarini tanlash imkoniyatini beradi.

Qoraqlapog'iston tuprog'inining kuchli sho'rланishi sholi yormalarining hosildorligi va sifatining pasayishining asosiy sabablaridan biridir. Bu omilning hosilga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun tuzga chidamli navlarni yetishtirish kerak.

Bir qator ijobjiy xususiyatlar va xususiyatlarni birlashtirgan moslashtirilgan navlarni yaratish uchun dastlabki materialni chuqur o'rganish va o'tish komponentlarini maqsadli ravishda tanlash kerak.

NaCl natriy xlorid eritmasining 1,5 % konsentratsiyasidan muvaffaqiyatli foydalandik (jadvalga qarang). Urug'larning unib chiqish bosqichida laboratoriya sharoitlarini baholash o'tkazildi va bardoshlilari ajratib olindi. Namunalarning bardoshliligi laboratoriyada unib chiqishi, ko'chat balandligi, ildizlarning uzunligi va soni, va biomassa to'planishi navlar ko'chatlarini qiyosiy tahlil qilish ularning genetik xususiyatlariga qarab hozirgi tuz konsentratsiyasiga reaksiyalarini aniqlash imkonini berdi.

Jadvalda 1,5% NaCl eritmasida unib chiqqan sholi navlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, har bir navning distillangan suv va 1,5 % NaCl eritmasida unish foizi ko'rsatilgan bo'lib, sho'rga moslashish xususiyatlarini o'rganishga imkon beradi. Jadval tahlili natijalariga ko'ra, unish foizlari D-11 (D-205) nav namunasida distirlangan suvda eng yuqori, ya'ni 99,5 %, 1,5% NaCl da 71,7 % eng yuqori natija qayd etildi.

Bu esa andoza Sanam (tegishli ravishda 92,5 %, 57,2) va Olmos (tegishli ravishda 97,5 %, 71,7 %) navlaridan ustunlikni namoyon etdi. O'rtacha unish foizi bir qator nav namunalarda kuzatilib, sho'rli muhitda o'rtacha unish foizini ko'rsatgan. Masalan, D-169 (D-8) (D-9) (73,7 %), D-120 (D-135) (70,7%), va D-143 (otb sharm) (70 %) kabi namunalar o'rtacha unish foizlarini ko'rsatadi. Bu navlar sho'rga bardoshliligi yuqoridagi nav namunaga nisbatan pastroq bo'lsa-da, o'sish qobiliyati yuqorilagini ko'rsatadi.

Past unish foizi jadvalga ko'ra, D-12 (36-98-4) (24,7%) va D-130 (C-138-20) (28,5%) kabi navlar sho'rli muhitda past unumdorlikka ega. Bu namunalar sho'rli muhitda ko'p omillarga moslashishda muammolarga duch kelgan, shuning uchun ularning urug'lari kam unish foizini ko'rsatgan. Nav namunalar orasida sho'rli muhitga moslashuvchanlikning yuqori darajasini ko'rsatganlar D-9 (K-274) (45,7 %) va D-157 (otb. C90-20) (40,0 %) kabi nav namunalar ham hisoblanadi. Ular sho'rga kam moslashadi, shunga qaramasdan, boshqa nav namunalarga nisbatan ham yuqori natijalarni ko'rsatdi.

Ta'kidlash joizki, sho'rangan tuproq-iqlim sharoitida D-11 (81,2 %) va D-169 (73,7 %) kabi nav namunalar ijobiy unish foizlarini ko'rsatgan bo'lib, ular sho'rga eng moslashuvchan nav namunalardan hisoblanadi. Ammo D-130 (28,5 %) va D-12 (24,7 %) kabi navlar past unumdorlikni ko'rsatgan, sho'rga moslashishda muammolarga duch kelgan. Bunday ma'lumotlar seleksion ishlar va sho'rga moslashuvchan turlarni tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Nihollik davridagi dastlabki bosqichlarda uzun donli sholi navlari ning sho'rangan muhitga chidamliligi ko'chatlarning o'sish va rivojlanish faolligi bilan aniq belgilangan. SHo'rangan sharoitda belgilarning xarakterli farqlari ularning tuzga chidamliligiga qarab o'zgarib turdi.

Sholi navlari natriy xloridning yuqori konsentratsiyasida o'stirilganda, paydo bo'lgan ko'chatlar soni va ularning o'lchamlari o'zgaradi. Ko'chatlar parametrlarining pasayishi laboratoriya unib chiqishining pasayishiga olib keladi. 1,5 %li yuqori sho'r konsentratsiyalarda ba'zi o'simliklarda oddiy ko'chatlarni hosil qila olmadi.

Yuqori konsentratsiyasi ko'chatlarning o'sishiga salbiy ta'sir qiladi. Ildizlarning o'sishi va shakllanishi, ayniqsa, ko'chatlarning havo qismlariga qaraganda kuchli tarzda inhibere qilingan. SHo'rangan muhitda ildiz tizimining ko'rsatkichlarining yaxshiroq o'zgarishi sho'rланishing stressli sharoitlariga moslashish deb hisoblanishi mumkin. Ehtimol, sho'rangan muhitda ildiz tizimining ishlashi tuz stressiga bardoshli deb hisoblanadi.

Tuzga chidamliligi bo'yicha qarama-qarshi bo'lgan namunalar ko'chatlarining yer usti organlari va ildiz tizimining o'sishi holati shuni ko'rsatadiki, muhitda sho'r suvning yuqori konsentratsiyasida bu ko'rsatkichlar

barcha o'rganilayotgan navlarda keskin pasayadi. Biroq, genotipik xususiyatga qarab, bunday pasayish teng bo'lмаган darajada sodir bo'ladi.

Har bir genotipning sho'rланishga o'ziga xos individual sezgirligi bo'lganligi sababli, unib chiqishni aniqlash, ko'chat parametrlarini o'lchash ushbu ko'rsatkichlarni inhibe qilishning muqarrarligini ko'rsatdi. Ko'chatlar biomassasiga eng tushkunlik ta'siri tuzga kamroq bardoshli namunalarda sho'rланган muhitda qayd etilgan. Tuzga chidamlilik uchun o'rganilgan navlardagi farqlar, ehtimol ularning genotipik javobiga bog'liq. 3.18-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 1,5 % NaCl eritmasida yetishtirilgan sholining uzun donli kolleksiya navlari ko'chatlarining parametrlariga ko'ra, 1,5 % NaCl eritmasida yetishtirilgan sholi navlarining ko'chatlarining turli parametrlari, ya'ni balandlik, ildiz uzunligi, ildizlar soni, va ildiz tizimi bilan ko'chatning vazni ko'rsatilgan. Bu parametrlar sholi o'simliklarining o'sish dinamikasiga va 1,5 % NaCl eritmasi ta'siriga qanday o'zgarishlar bo'lishini ko'rsatadi.

Ko'chatning balandligi o'simlik darajasini va o'sishini ko'rsatadi. Sholi navlarida balantlikning farqi ularning o'sish sharoitlariga bog'liq. Nazoratda ko'rsatkichlar yuqori bo'lsa, bu o'simlikning suv va ovqat moddalarini yetarli darajada qabul qila olishini anglatadi.

D-143 (otb. Sharm), D-169(D-8) (D-9)(3) va D-120 (D-135) navlarining o'simlik balandligi ko'rsatkichlari eng yuqori bo'lib, ular 18,5 sm, 15,1 sm va 15,0 sm ko'chat balandligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, NaCl eritmasi ta'sirida ushbu ko'chatlar balandligining pasayishi kuzatilgan, masalan, D-143 (otb. Sharm) navining balandligi 12,5 sm ga, *D-120 (D-135)* navi 11,8 sm ga kamaygan. Bu, NaCl eritmasi ta'sirida o'simliklar o'sishda ma'lum darajada stressga duchor bo'lganini va o'zining biologik funksiyalarini kamroq bajarayotganini ko'rsatadi.

Ildiz uzunligi sholi nav namunalarining o'sishini va suv sarfiga ta'sir qiladigan muhim parametrlardan biridir. Ildiz uzunligi ko'chatning oziqlanish jarayonini, ya'ni u suv va ovqat moddalarini qanday so'radishini ko'rsatadi. Nazorat shartlarida D-143 (otb. Sharm) ko'chatining ildiz uzunligi 12,5 sm, D-120 (D-135) nav namunasining ko'chatining ildiz uzunligi esa 12,2 sm bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar eng yuqori bo'lgan.

Jadval

Ajratib olingan sholi kolleksiya nav namunalarining 1,5 % NaCl eritmasida uzun donli sholi kolleksiya naylari ko'chatlarining parametrlari

№	Nav namunalarini	Balandligi, sm		Ildiz uzunligi, sm		Ildizlar soni, dona		Ildiz tizimi bilan ko'chat vazni, g	
		nazorat	NaCl	nazorat	NaCl	nazorat	NaCl	nazorat	NaCl
1	Sanam st	14,3	1,7	12,5	0,3	7,08	1,8	0,31	0,57
2	Almaz	12,7	2,8	12,2	0,2	7,50	2,1	0,3	0,68
3	D-11(D-205)	14,1	3,3	11,5	0,61	5,92	4,3	0,29	0,60
4	D-169(D-8)(D-9)(3)	15,1	3,2	11,8	0,77	6,90	4,5	0,48	0,80
5	D-120(D-135)	15,0	2,7	10,8	0,52	6,50	2,9	0,35	0,63
6	D-143(otb. Sharm)	18,5	2,3	11,3	0,38	6,47	2,8	0,36	0,75
7	D-97(otb. Lazumiy)	7,68	1,7	10,2	0,69	5,25	2,6	0,20	0,63
8	D-7(K-306)	10,3	1,6	11,1	0,31	6,72	1,6	0,26	0,74
9	D-147(otb. Sharm)	8,90	1,2	12,5	0,60	6,05	1,7	0,20	0,85
10	D-133(65-06-1)	7,37	1,3	10,8	0,86	6,42	2,2	0,24	0,83
11	D-10 (8-04-8)	7,9	2,0	10,5	0,30	7,92	2,2	0,29	0,84
12	D-9(K-274)	11,7	1,6	12,9	0,17	6,95	1,5	0,25	0,71
13	D-157(otb. C90-20) d/z	8,84	0,9	11,4	0,45	5,52	1,8	0,19	0,61
14	D-36(D-149)	8,77	1,8	15,2	0,76	4,77	2,4	0,22	0,75
15	D-12(R36-98-4)	12,0	2,0	11,8	0,66	7,45	3,7	0,36	1,1
16	D-116(20-09-3)	15,3	1,4	9,27	0,22	6,57	1,5	0,43	0,78
17	D-130(C-138-20)	10,4	2,0	9,23	0,17	5,37	1,2	0,43	0,95

Ammo 1,5% NaCl eritmasi bilan sug'orish natijasida ildiz uzunliklari barcha navlarda kamaygan. Misol uchun, D-143 (otb. Sharm) nav namunasida ildiz uzunligi 11,3 sm ga, D-120 (D-135) navida 10,8 sm ga kamaygan. Bu, NaCl eritmasi darajada stress manbai ekanligini va o'simliklar suvni samarali sarflanishini ko'rsatadi.

Ildizlar soni ko'chatning oziqlanish qobiliyatiga bog'liq bo'lib, bu parametr ko'chatning rivojlanishining ko'rsatkichi hisoblanadi. NaCl 1,5 % eritmasi ta'sirida ko'rsatkichlar pasayganini ko'rish mumkin.

Nazoratda *D-143 (otb. Sharm)* va *D-11 (D-205)* navlarida ildizlar soni 7,08 ta va 7,50 ta bo'lgan, lekin NaCl eritmasida bu ko'rsatkichlar kamayib, 6,47 ta va 6,42 taga tushgan. Bu ko'chatlar suv va mineral moddalarni so'rish qobiliyatida pasayishini anglatadi.

Ildiz tizimining vazni o'simlikning umumiyligini o'sish holatini ko'rsatadi. Nazoratda ko'chatning vazni yuqori bo'lgan, chunki ularning ildiz tizimi yaxshi rivojlangan. *D-169 (D-8)(D-9)* va *D-120 (D-135)* navlarining vazni 0,63 g va 0,64 g bo'lib, ular eng yuqori ko'rsatkichlarga ega. Ammo 1,5 % NaCl eritmasi ta'sirida, ushbu ko'chatlarning vazni kamaygan. Masalan, *D-143 (otb. Sharm)* navi 0,80 g vaznga ega bo'lib, NaCl eritmasida vazni 0,75 g ga kamaygan. Bu, NaCl eritmasi ta'sirida ildiz tizimining zaiflashganini va o'sishni og'irlashtirganini ko'rsatadi.

Shuningdek, navlar va nav namunalar bo'yicha tavsiflar quyidagilardan iborat. *Sanam andoza navi* 1,5% NaCl eritmasi ta'sirida balandlik va ildiz uzunligida keskin pasayishi kuzatildi. Nazorat shartlarida balandlik 14,3 sm, ildiz uzunligi 12,5 sm bo'lgan, ammo NaCl eritmasida ular 1,7 sm va 0,3 sm ga kamaygan. *Almaz* navi ham NaCl eritmasida ildiz uzunligi va vaznida pastlashishni ko'rsatdi. Balantlik va ildiz uzunligi kamaygan va ildizlar soni kamaygan. *D-11 (D-205)* nav namunasi ko'chatining o'sish parametrlari NaCl eritmasi bilan katta farq qilmagan, lekin ildizlar soni va vazni kamaygan. *D-143 (otb. Sharm)* nav namunasi eritmada kamayishda eng ko'p farqi ko'rsatgan navlardan biri bo'lib, balandlik, ildiz uzunligi va vaznida kamayishlar kuzatildi. *D-157 (otb. C90-20)* nav namunasi NaCl eritmasida ildiz tizimini zaiflashtirgan, shuningdek, vazni kamaygan va ildiz uzunligi pasaygan.

Xulosalar. Ta'kidlash joizki, 1,5% NaCl eritmasida sholi navlarining o'sish parametrlarida aniq pastlashishlar kuzatildi. Har bir parametrda (ko'chat balandligi, ildiz uzunligi, ildizlar soni va vazni) NaCl eritmasi ta'sirida o'sish kamaygani ma'lum bo'ldi. Bu, NaCl eritmasi sholi navlari uchun o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatganini va ularning biologik faoliyatini yo'lga qo'yishda muammolar paydo bo'lishini anglatadi. Agar NaCl eritmasi miqdori oshsa, bu o'sish jarayoniga yanada katta ta'sir qilishining imkoniyati bor. Bunday natijalar sholi navlarining yetishtirilish shartlarini rivojlantirish, sholining yangi navlarini ishlab chiqishdagi muhim qadamlar bo'lib xizmat qiladi.

Sholi nav namunalarining laboratoriya sharoitida 1,5% NaCL eritmasida unuvchanlik ko'rsatkichlariga bo'yicha D-136(K-154) D-32(D-135), D-15(D-158), D-39(otbor1/10)(1), D-141(D-163), D-6(65-02-2) nav namunalarining ustunligi, laboratoriya sharoitida o'tkazilgan tadqiqotlarda sholi kolleksion namunalarining sho'rga chidamliligi bo'yicha turli darajadagi reaksiyalari qayd etildi. Eng chidamli namuna va liniyalar kelgusida sho'rga bardoshli sholi navlarini yaratish uchun muhim seleksion material sifatida tavsiya etildi. Tanlab olingan nav namunalar kompleks foydali xossalarga ega bo'lib, ular orasidan sho'rланishga bardoshli donorlarni ajratib olindi hamda yangi sholi nav namunalarining genetik axborot bazasi yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abillaryev. U. "Znacheniye sorta v povisheniy urojajnosti risha" Jur. "Vestnik KKOAN RUz". 2006: № 4. S 33-34.
2. Goncharova Y.K, Xaritonov E.M. Mexanizm soleustoychivosti Rossiyskix sortov risha. Jur "Agrarniy vestnik Urala" 2010: № 8 (74), S 45–48.
3. Kostilev P.I., Krasnova E.V. Izuchenije soleustoychivosti obrazsov risha. Yubileyniy sbornik VNIIIZK, 2005. S 185-191.

**MDH MAMLAKATLARIDA TOVAR BELGILARINI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MUHOFAZA QILISH VA MUHOFAZA
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI**

Shukurov Eldor Narzulla o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura bosqichi talabasi

eldorjonshukurov@gmail.com

Annotatsiya: *Jamiyatda har bir shaxs asl tovarlarni, mahsulotlarni sotib olishni istashadi, lekin ko'plab hollarda o'zimiz ham guvoh bo'lamiz yoki eshitamiz, ayrim kishilar haqiqiy, asli deb sotib olgan mahsuloti sifatsiz, talab darajasida emas yoki qanaqadir muammosi bo'ladi. Muayyan bir qo'shtirnoq ichidagi "tadbirkorlar" borki, ular o'z manfaatlari yo'lida oson boylik orttirishni maqsad qilgan holda qonunni chetlab o'tib, taniqli tovar belgilaridan foydalanish orqali yoki ushbu tovar belgisiga o'xshash belgilardan ya'ni farqlash darajasidan uzoq bo'lgan belgilardan foydalanish orqali sifat darjasini past bo'lgan yoki talab darajasida bo'lmagan mahsulotlarni sotishga harakat qilishadi.*

Kalit so'zlar: *Milliy ro'yxatga olish tizimi, Xalqaro tizim, Ekspertiza, Yevrosiyo, НИЦК-ЗАЩИТНИК*

MDH mamlakatlarida tovar belgilarini muhofaza qilishda shakllariga hamda ularning o'ziga xos jihatlariga keladigan bo'lsak, MDH mamlakatlarida boshqa davlatlarda amal qiladigan tovar belgilarini ro'yxatga olish tizimi kabi yagona umumlashgan tizimni uchratmaymiz, aksincha, tovar belgilarini himoya qilish hududiy xarakterga ega bo'lib, har bir davlatning o'z milliy tizimi mavjudligi hamda xalqaro miqyosda Madrid tizimi kabi xalqaro mexanizmlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Tovar belgilarini ro'yxatga olish usullariga kelsak, MDH davlatlarida tovar belgilarini ro'yxatga olishning ikki asosiy usuli mavjud.

- **Milliy ro'yxatga olish tizimi:** davlatlarning rasmiy patent idorasiga ariza berish orqali amalga oshiriladigan tizim. Xorijiy fuqarolar tomonida arizalar berish esa mahalliy patent vakillari orqali amalga oshiriladi. Talabnama topshirilgandan so'ng jarayon dastlabki tekshiruv, rasmiy ekspertiza, belgi ekspertizasi va guvohnoma berish kabi protsesslardan iborat bo'ladi.

- **Xalqaro tizim:** Jahon intellektual mulk tashkiloti orqali amalga oshiriladigan ariza berish tizimi ya'ni Madrid tizimi mexanizmi orqali xalqaro tarzda talabnomalar berish ishlari amalga oshiriladi. Xususan, ushbu tizim

MDH davlatlarini (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, O'zbekiston, Armaniston) o'z ichiga qamrab oladi. Ushbu tizimga a'zolik tovar belgisida muhofaza olishda talabnama berish ishlarini soddalashtirishga imkon beradi, lekin ushbu xalqaro tizim dastlab milliy tizimda tovar belgisiga muhofaza berilganlikni yoki talabnama topshirilganlikni talab qiladi¹.

Milliy ro'yxatga olish jarayonlariga to'xtalsak, MDH davlatlarida talabnomani qabul qilish hamda ro'yxatga olish jarayonlari deyarli bir bo'lib quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1. Patent vakillari orqali yoki shaxsan ariza berishni tanlash – mahalliy fuqarolar o'zлari yoki shaxsiy vakillari orqali ariza berishlari mumkin bo'lsa, xorijiy shaxslar rasmiy ro'yxatdan o'tgan mahalliy vakillar orqali amalga oshiriladi.

2. Ariza berish – har bir davlatda milliy patent idorasiga arizachilar talabnama shakllantirib, ilova hujjatlar bilan birlgilikda topshirishadi.

3. Talabnama topshirilgandan keyingi dastlabki tekshiruv – ushbu tekshiruvda ro'yxatga olingan tovar belgisi va unga berilgan talabnama ko'rib chiqiladi hamda mavjud tizimlarda shunga o'xshash belgilar mavjudligini aniqlash uchun qidiruv o'tkaziladi.

4. **Ekspertiza** – rasmiy hujjatlarni tekshirish hamda originallik va qonunchilikka muvofiqlikni tahlil qilishdan iborat ekspertizalardan tashkil topgan jarayon.

5. Ro'yxatga olish va guvohnoma berish jarayoni – topshirilgan talabnama muvaffaqiyatli tarzda ekspertizadan o'tgandan so'ng tovar belgisi vakolatli davlat organi yoki intellektual mulk idorasi tomonidan yuritiladigan reyestrga kiritiladi hamda rasmiy axborotnomada e'lon qilinib, tegishli guvohnoma beriladi.

6. Muddatlar bilan bog'liq masalaga kelsak, har bir davlatda turlicha muddatni tashkil qilib, 4 oydan 24 oygacha bo'lgandan iborat bo'ladi, ba'zidan bundan ham uzoqroq muddatga cho'zilishi ham mumkin bo'lgan holatlar mavjud².

Xalqaro ro'yxatga olish tizimiga qaraydigan bo'lsak, MDH davlatlari hozirda faqatgina Madrid tizimiga amal qilgan holda chet davatlarda o'z tovar belgilarini ro'yxatdan o'tkazish uchun ariza berishlari mumkin. Ammo hozirgi vaqtda garchi milliy va xalqaro tizim ishlab turgan bo'sada, davlatlararo mintaqaviy tizim mavjud emas va bu kabi tizimning yo'qligi boshqa davatlarda belgini himoya qilishda arizachilarga bir muncha qiyinchilik tug'diradi. Ushbu muammoni hal etish uchun hozirda Yevrosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasida tovar

¹ [legal-support.ru; www.garant.ru; patentus.ru; intellectprava.ru.]

² [legal-support.ru; brand-search.ru; msp-patent.ru; tm.ua.]

belgilarini ro'yxatga olish bo'yicha yagona tizim ishlab chiqilmoqda, xususan, Rossiya, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iziston davlatlari ushbu tizim ustida jadal ish olib borishmoqda. Ushbu tizim a'zo davlatlarda intellektual mulkni himoya qilishni soddalashtirishga hamda xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Ushbu tizimni afzalliklariga kelsak, Yevroosiyo tovar belgilarini ro'yxatga olishni yagona tizimga birlashtirishga xizmat qiladi: Bunda:

- yagona ariza orqali barcha a'zo davlatlar (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston, Qirg'iziston) hududida tovar belgilarini himoya qilishni ta'minlaydi;
- milliy ro'yxatga olish jarayonlariga nisbatan olib qaraganda vaqt va xarajatlarni anchagina tejash imkonini beradi;
- a'zo davlatlar ichida ro'yxatdan o'tgan hamda muhofaza qilingan tovarlarning erkin harakatlanishini ta'minlaydi va biznes uchun qulay muhit yaratib beradi.

Ushbu Yevroosiyo tovar belgilari tizimi ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bosqichida hisoblanadi. Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YOII) doirasida 2019-yilda "Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi to'g'risidagi shartnoma"ga o'zgartirish kiritish to'g'risida protokol imzolangan bo'lib, ushbu protokol tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilarini mintaqaviy ro'yxatga olish tizimini joriy etish istiqbollarini ham o'z ichiga olgan. Hozirgi vaqtda tizim to'liq ishlashi uchun normativ-huquqiy baza ishlab chiqilmoqda, shuningdek, talabnomalarni ro'yxatga olish, to'lovlar va ekspertiza qilish tartib-qoidalari ham aniqlashtirilmoqda³.

Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, ushbu tizimga a'zo davlat fuqarolari mintaqaviy tarzda o'z brendini muhofaza qilishni istasa, yagona ariza orqali muhofaza olishi mumkin bo'ladi. Bunda asosan arizachilarga xarajatlarni katta hajmda qisqartirish imkonini beradi. Bir fuqaro Rossiya, Qozog'iston va Belarus davlatlarida tovar belgisini himoya qilish uchun an'anaviy tarzda ariza berish orqali o'rtacha \$2500-4500 orasida xarajat qilishga to'g'ri kelgan bo'lsa, agar yangi tizim orqali ariza topshirsa taxminiy xarajatlar \$2000-3000 atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi doirasida ishlab chiqilayotgan tizimda **ННЦК-ЗАЩИТИК** (*Национального научного центра компетенций*) – avtomatlashtirilgan internetda tovar belgilarini noqonuniy foydalanishini kuzatish va buzilishlarga qarshi chora ko'rish platformasidan foydalanish kuzda tutilgan. Ushbu platforma 170 dan ortiq davlatda 90 ta tilda doimiy ravishda monitoring olib bora oladi. Funksiyalariga kelsak, internetda tovar

³ [rospatent.gov.ru.]

belgilaridan ruxsatsiz foydalanishlarni monitoring qiladi, buzuvchilarga ogohlantirishlar yuboradi va ulardan noqonuniy foydalanishni to'xtatishni talab qiladi, 95% holatlarda buzilishlarni sudgacha hal etishga hamda xarajatlar va vaqt ni tejashga yordam beradi va agar sudgacha masalaga yechim topish imkonsiz bo'lsa, platforma sudga murojaat qilish uchun hujjatlar tayyorlashda yordam ham beradi. Misol uchun, agar tovar belgisi bo'lgan AliExpress belgisi Instagram yoki Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarda noqonuniy tarzda foydalanilayotganligi aniqlansa ННЦК-ЗАЩИТНИК platformasi administratorga shikoyat yuboradi hamda belgidan foydalanishni to'xtatishni talab qiladi hamda oqibatlari haqida ogohlantiradi⁴.

Rossiya Federatsiyasida tovar belgilarini muhofaza qilish ham O'zbekiston qonunchiligiga o'xshab ketadi. Qonunchilik Rossiyada Rossiya Fuqarolik kodeksi hamda vakolatli organ Rospatentning ma'muriy reglamenti kabi bir qator qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadi. Tovar belgilari vakolatli organ hisoblangan Rospatent tomonidan ro'yxatga olinadi. Ariza topshirilgandan keyin Rospatent rasmiy va mazmuniy ekspertiza o'tkazadi. Yakunda ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, tovar belgisiga bo'lgan eksklyuziv huquqni tasdiqlovchi guvohnoma beriladi. Xalqaro munosabatlarda ham Rossiya 1976-yildan beri Madrid bitimi va 1997-yildan beri Madrid bitimi protokoli ishtirokchisi hisoblanadi. Huquq egasi Rospatent milliyga talabnomaga topshirigandan so'ng xalqaro ro'yxatga olish va boshqa davlatlarda ham muhofaza olish uchun ariza berishi mumkin.

Umumiy aytadigan bo'lsak, MDH davlatlarida qonunchilik sohasi deyarli bir birdan farq qilmaydi. Har bir davlatning tovar belgilarini tartibga solish bo'yicha o'z milliy qonunchilik tartibi mavjud, ushbu qonunchilikka muvofiq fuqarolar tovar belgilarini ro'yxatga olish bo'yicha talabnomaga topshirishi, talabnomaga berish uchun belgilangan to'lovlarni amalga oshirishi hamda ko'rsatilgan ilova hujjatlarni berishi lozim hisoblanadi. Shundan so'ng har bir patent idorasi talabnomaga topshirilgandan keyin tegishli tartibda ekspertiza ishlarini amalga oshiradi hamda tegishli xulosa taqdim etadi. Ekspertiza ishlari yakunlangandan so'ng belgi vakolatli organ tomonidan yuritiladigan reyestrga kiritiladi hamda tegishli axborotnomada belgiga muhofaza berilgani haqida ma'lumotlar e'lon qilinadi.

⁴ [nnck.gov.ru.]

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR:

1. Лопатин, В. Н., & Дорошков, В. В. (2014). О состоянии правовой охраны, использования и защиты интеллектуальной собственности в Российской Федерации и странах СНГ в 2013 году. *Материалы шестого международного форума «Инновационное развитие через рынок интеллектуальной собственности», Москва.*
2. [brand-search.ru] – <https://brand-search.ru/blog/trademarks/procedura-registracii-tovarnogo-znaka-v-sng/>
3. [www.eapo.org] – <https://www.eapo.org/eapv-countries/gosudarstva-sng-budut-razvivat-vzaimodejstvie-v-sfere-is/>
4. legal-support.ru; brand-search.ru; msp-patent.ru; tm.ua

**MDH DAVLATLARIDA TOVAR BELGILARIDAN FOYDALANISHNI
TA'MINLOVCHI HUQUQ NORMALAR TIZIMINING VUJUDGA KELISH
TARIXI VA RIVOJLANISH TENDENSIYASI**

Shukurov Eldor Narzulla o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura bosqichi talabasi

eldorjonshukurov@gmail.com

Annotatsiya: *Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida tovar bilan bog'liq munosabatlar ishlab chiqarishning asosiyligi bo'lib xizmat qilmoqda va buning natijasida tovar belgisiga bo'lgan mutlaq huquqni amalga oshirishni ta'minlash davlat huquqiy mexanizmi mavjudligining muhim asosiyligi elementiga aylanib bormoqda. MDH mamlakatlarida ham tovar belgilarini muhofaza qilish sohasida qonunchilik tizimini shakllanishi o'ziga xos shaklda sodir bo'lgan. Huquqiy jihatdan tartibga solish sobiq sovet davrida vujudga kelib, ittifoq parchalangandan so'ng har bir mustaqil davlatning oldida o'z qonunchilik tizimini yaratish, shuningdek, tovar belgilarini tartibga soladigan qonun qabul qilish kabi muhim vazifalar bor edi.*

Kalit so'zlar: *chor Rossiyasi, eksklyuziv huquq, Xalq Komissarlari Kengashi, xalqaro shartnomalar, milliy qonunlar*

Tan olish kerakki, deyarli butun MDH mamlakatlarining tovar belgilari bo'yicha tarixi bevosita chor Rossiyasi davriga borib taqaladi. Xususan, Rossiyada tovar belgisiga bo'lgan huquqning shakllanishiga kelsak, chor Rossiyasida tovar belgisini chiqarish haqida birinchi eslatmalar 1667-yil 22-aprelda podsho Aleksey Mixaylovich davrida qabul qilingan "Yangi savdo nizomi"da qayd etilgan. Nizomni yaratuvchilardan biri bo'lgan Afanasy Lavrentyevich Ordin-Nashchokin bo'lib, ushbu shaxs bu hujjatni ishlab chiqishga katta hissa qo'shgan. Tovar belgilarini mahsulotlarning muqovasida qo'llash haqida gap ketganda, tovar belgilaridan mahsulotda to'g'ridan to'g'ri qo'llash 1744-yildagi "Barcha rus tovarlarini maxsus zavod belgilari bilan majburiy markalash to'g'risida" gi farmonning e'lon qilinishi bilan boshlangan deya olamiz. Shu farmondan so'ng ko'plab ishlab chiqaruvchi zavodlar o'z mahsulotlariga ishlab chiqaruvchi zavod nomini yoki ko'rinishi tushirishni boshlashgan.

1896-yilda "Tovar belgilari (tovar belgilari, belgilar va tamg'alar) to'g'risida"gi farmon kuchga kirgan. Ushbu farmonda tovar belgisining

ta'rifi ham keltirib berilgan edi. Tovar belgisiga bo'lgan eksklyuziv huquq haqida gapirganda shuni ta'kidlash kerakki, uning farqlanishi to'g'ridan to'g'ri savdo va sanoat bilan bilan bog'liq davlat organining paydo bo'lishiga turtki bo'ldi deya olamiz va buning natijasida tovar belgisiga bo'lgan eksklyuziv huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati yaratilishiga olib keldi. Tovar belgisi bo'lgan eksklyuziv huquqni amalga oshirishning muhim hujjati sifatida huquq egasiga vakolatli organ tomonidan beriladigan sertifikat hisoblanardi, bu sertifikat faqat muayyan turdag'i tovarlarda tovar belgisini joylashtirish imkoniyatini nazarda tutardi xolos.

Sovet respublikasida tovar belgilari huquqiy muhofazasini tartibga soluvchi birinchi qonun hujjati 1918-yil 15-avgustdag'i Xalq Komissarlari Kengashining "Tovar belgilari uchun boj to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Ushbu qarorga ko'ra, chor Rossiyasida mahalliy va xorijiy korxonalarga berilgan barcha guvohnomalar, tasdiqnomalar va sertifikatlar savdo hamda sanoat xalq komissarligida ro'yxatdan o'tkazilishi, ro'yxatdan o'tkazilmagan guvohnomalar esa haqiqiy emas deb topilishi belgilab qo'yiladi. Bundan tashqari, ushbu qaror tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish uchun to'lov miqdorini, shuningdek, tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazish tartibini belgiladi. Qarorda, shuningdek, tovar belgisiga ega bo'lish huquqi faqat milliy, ya'ni davlat kompaniyalari uchun berilishi haqida qoida mavjud edi.

Shu tariqa sovet respublikasida tovar belgilari bilan bog'liq qarorlarga 1922 va 1923-yillarda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Qonunchilik bazasini shakllantirishning keyingi bosqichi sifatida 1936-yil 3-iyuldag'i SSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining 47-sonli "Ishlab chiqarish markalari va tovar belgilari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra, tovar belgilarni ro'yxatdan o'tkazish tartibiga o'zgartirish kiritildi. Masalan, dori-darmonlar va tibbiy asboblar uchun tovar belgilarni ro'yxatdan o'tkazish sog'liqni saqlash xalq komissarligi tomonidan, mashinalar, uskunalar, qurilish materiallari va kimyoviy moddalar uchun tovar belgisini rasmiylashtirish esa og'ir sanoat xalq komissarligi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Qolgan tovarlar bo'yicha tovar belgilarni ro'yxatdan o'tkazish SSSR Tashqi savdo xalq komissarligi yordamida amalga oshirilardi. Yangi hukumat tomonidan tayinlangan komissarliklar arizalarni ko'rib chiqardi va tovar belgisidan eksklyuziv foydalanish uchun huquq egalariga sertifikatlar ber edi.

O'tgan davr mobaynida tovar belgilari bilan bog'liq bir qancha qonunchilik hujjatlari qabul qilinishi va ularga ko'plab o'zgartirishlar kiritildi. Shu davr mobaynida XX asrning 2-yarmida Sovet ittifoqi xalqaro shartnomalarga ham e'tiborni qarata boshladi. Xususan, 1974-yil 8-yanvarda SSSR ixtiolar va kashfiyotlar bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan "Tovar belgilari to'g'risida"gi Nizom qabul qilindi. Bu nizom SSSRning xalqaro shartnomalarga qo'shilishi munosabati bilan amalda qabul qilinishi zarur bo'ldi, chunki bu nizomda tovar belgisi instituti uchun muhim bo'lgan quyidagi shartnomalar alohida ahamiyatga ega edi:

- 1957-yil 15-iyunda Nitsada tuzilgan "Tovar belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va xizmatlarning xalqaro tasnifi to'g'risida"gi kelishuv;
- 1883-yil 20-martda Parijda tuzilgan sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi.

Bozor iqtisodiyotining asta-sekin rivojlanishi mahsulotni individuallashtirish vositalarini himoya qilish va ulardan foydalanishning huquqiy masalalarini tartibga soluvchi qonun paydo bo'lish imkoniyatini oldindan belgilab qo'yishni talab qildi. Bunday qonun loyihasi 1991-yil 3-iyuldagagi SSSRning 2293-1-sonli "Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida"gi qonuni bo'ldi, bu qonun 1992-yil 1-yanvardan kuchga kirishi kerak edi, ammo Sovet Ittifoqi parchalangani sababli amal tatbiq etilmadi. Keyinchalik ushbu qonun loyihasi Rossiya Federatsiyasi Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 23-sentyabrdagi 3520-1-sonli "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlarning kelib chiqish joyi nomlari to'g'risida"gi Rossiya Federatsiyasi qonunini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Sovet ittifoqining boshqa davlatlari ham o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng birin ketinlik bilan o'z qonunchilik bazasini shakllantirishni boshlashdi, shu asnoda intellektual mulk bilan bog'liq jarayonlarni ham tartibga solish borasida ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishdi. Iqtisodiyot rivojlanishi va bozor iqtisodi rivojlanishi tovar belgilarining muhofazasini joriy qilish zamon talabiga aylanishi davlatlarni tovar belgilarini himoyasini joriy etishda maxsus qonunchilikni yaratish hamda muhofaza tizimini yaratish asosiy e'tibor markaziga chiqdi.

Sovet ittifoqi parchalangandan so'ng MDH mamlakatlari ichida birinchilardan bo'lib Tojikiston Respublikasi 1991-yil 23-dekabrda 456-sonli "Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari to'g'risida"gi qonunni

qabul qildi. Shundan so'ng barcha respublikalar ketma ketlikda o'z milliy qonunlarini qabul qilishni boshlashdi. Jumladan:

- 1993-yil 5-fevralda Belarus Respublikasining 2181-XII-son "Savdo belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari haqida" Akti ;
- 1995-yil 22-noyabrda Moldova Respublikasining 588-XIII-son "Tovar belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida" Qonuni ;
- 1993-yil 15-dekabrda Ukrainianing 3689-sonli "Tovarlar va xizmatlar belgilariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish to'g'risida" Qonuni ;
- 1998-yil 14-yanvarda Qirg'iziston Respublikasining 7-son "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida" gi Qonuni ;
- 1998-yil 12-iyunda Ozarbayjon Respublikasining 504-IQ "Tovar belgilari va geografik ko'rsatkichlar to'g'risida"gi Qonuni ;
- 1999-yil 26-iyulda Qozog'iston Respublikasining 456-son "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, geografik ko'rsatkichlar va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni ;
- 2000-yil 20-martdagi Armaniston Respublikasining 41-son "Tovar belgilari va xizmat ko'rsatish belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni ;
- 2001-yil 30-avgustdagi O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida" Qonuni ;
- 2008-yil 23-oktabrdagi Turkmanistonning "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni .

Umumiyl xulosa qilib aytadigan bo'lsak, MDH davlatlarida tovar belgilaridan foydalanish bilan bog'liq qonunchilik tizimining vujudga kelishi va shakllanishi postsoviet makonida iqtisodiy mustaqillikka erishish va bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida sodir bo'ldi. Tovar belgilari bilan bog'liq qonunchilikning dastlabki versiyalari sovet ittifoqi parchalangandan so'ng 1990-yillarning 1-yarmida vujudga keldi hamda qabul qilinishni boshladi. Dastlabki qonunlar asosan sobiq SSSR ning intellektual mulk bo'yicha qonunchilik normalariga asoslangan tarzda ishlab chiqilgan edi. Keyinchalik har bir davlat alohida xalqaro maydonda o'z pozitsiyasini egallab borishi natijasida qonun ijodkorligi sohasida ko'plab ishlarni amalga oshirishdi hamda 2000-yillardan boshlab xalqaro miqyosda o'z qonunchilik bazasini qayta ko'rib chiqishni boshlashdi. Xususan, Rossiya, Armaniston, Qozog'iston kabi davlatlar o'z qonunchiligini Jahon savdo tashkilotining TRIPS (Trade-Related-Aspects

of Intellectual Property Rights) shartnomasi talablariga moslab o‘zgartirish va qayta qabul qilish choralarini ko‘rishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBAALAR:

1. Афанасьев В.И. Становление и развитие товарного знака и его законодательное обеспечение на примере России / В.И. Афанасьев // Право и государство: теория и практика. – 2016. – №4. – С. 39-44.
2. Царегородцев Е.А. Права владельцев товарных знаков и знаков обслуживания и их гражданско-правовая защита / Е.А. Царегородцев, С.А. Царегородцева, А.Д. Бурлаченко // Проблемы экономики и юридической практики. – 2017. – №3. – С. 57-60.
3. [www.adlia.tj] – https://www.adlia.tj/show_doc.fwx?Rgn=12
4. [pravo.by] – <https://pravo.by/document/?guid=3961&p0=V19302181>
5. [www.legis.md]
https://www.legis.md/cautare/getResults?doc_id=136351&lang=ru
6. [ips.ligazakon.net] – <https://ips.ligazakon.net/document/DG021099>
7. [cbd.minjust.gov.kg]
<https://cbd.minjust.gov.kg/112553.edition/1242857/ru>
8. [e-qanun.az] – <https://e-qanun.az/framework/3293>
9. [adilet.zan.kz] – https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z990000456_
10. [www.arlis.am] – <https://www.arlis.am/hy/acts/8263>
11. [lex.uz] – <https://lex.uz/docs/-24925>
12. [turkmenistan.gov.tm] –
<https://turkmenistan.gov.tm/index.php/ru/post/33873/zakon-turkmenistana-o-tovarnykh-znakakh>

IBROYIM YUSUPOV VA O'ZBEK SHE'RIYATI

Mawlenkulova Saltanat

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
1-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Maskur maqolada Ibroyim Yusupovning o'zbek ijodkorlari haqidagi she'rlariga tahlil va madaniy aloqalar haqida so'z boradi. Maqoladan Ibroyim Yusupov tominadan ózbek tiliga tarjima qilingan she'rlarga misol va tahlillar o'rinn olgan.*

Kalit so'zlar: *Ibroyim Yusupov, do'stlik, she'rlar, ijodkor, madaniy aloqalar*

KIRISH

Orta Osiyoga malum, atoqli shoir Ibroyim Yusupov she'riyatida o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi do'stlik mavzusi alohida o'rinn tutadi. Ibroyim Yusupov turli janr va mavzularda ijod qilgan. U yozmagan mavzu, qalam tebratmagan janr yo'qdek. Shoирning 30 dan ortiq she'riy va nasriy toplamlari chop etilgan.U jurnalist sifatida ham birqator publitsistik maqolalar muallifi. O'zbek adabiyoti bilan abadiy do'stlik mavzusi Ibroyim Yusupov ijodidagi eng yorqin sahifalarni tashkil qiladi. U ijodkor, tarjimon, matbuot xodimi, jamoat arbobi sifatida o'zbek adabiyoti va madaniyatining yirik vakillari bilan do'stlashdi, ijodiy muloqotlarda, safarlarda birga bo'ldi. Ibroyim Yusupov ijodida millatlar totuvligi, ikki xalq o'rtasidagi mehr-muhabbat va hamjihatlikni aks ettiruvchi she'rlar talaygina. Ibroyim Yusupov o'zbek shoirlari va ijodkorlari bilan uzviy aloqada bo'lgan. Shoир o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasida madaniy aloqalar ko'prigini o'rnata olgan shoir hisoblanadi. Ibroyim Yusupovning o'zbek shoir va shoiralari, ularning ijodiga hurmati baland bo'lgan va bu shoir she'rlarida o'z aksini topgan.

Masalan uning «Toshkentlik shoir do'stlarimga» deb nomlangan she'rida o'zbek she'riyatida alohida o'ringa ega bo'lgan bir qator shoirlar tilga olinadi.

Ulli Nawayidan tartip búgingi
Kishkene Abdullaniń qosığına deyin
Ózbek sheriysi bir dýnya bolıp
Ruwxımda gúllep jasaydı meniń

Shoirning maskur she'rida Mirtemir, Oybek, G'afur G'ulom, Zulfiya singari o'zbek she'riatining buyuk siymolari ham tilga olinadi. She'rda Zulfiya Isroilovani Sharq ayollariga namuna sifatida kórsatgan. Shoirning Zulfiyaxonimga hurmati alohida bo'lgan. Ijodkorning «Qizing go'zal bo'lsin, shoira bo'lsin» she'ri bunga yaqqol misol bo'la oladi.

She'rda qiz farzandlarga Zulfiya deb ism qo'yishni maslahat beradi.

Ibroyim Yusupovning bir qator she'rlari do'stlik, xalqlar o'rtasidagi birdamlik va iliq muhabbatni tarannum qiladi. Masalan ; «O'zbekston», «Mustaqillik maydonidan o'tkanda», «Men Toshkentni sog'inaman ko'rmasam»

she'rlarida shoirning o'zbek xalqiga samimiyl mehr va muhabbat ko'rindi. Shoirning «Navoiyga» nomli she'rida g'azal mulkining sultonini bo'lgan Alisher Navoiyga bo'lgan buyuk ehtiromi aks etgan.

...Sahro gullarini sochay poyingga,

Navoiyni suygan qoraqalpoq bo'lib.

Ibroyim der: ulug' ruhing oldida

Bosh egayin shogirding Berdaq bo'lib.

Muhammad Ali tarjimasidagi maskur she'r misralari nafaqat Ibroyim Yusupovning balki qoraqalpoq xalqining Navoiyning ulug' siyemosiga alohida hurmatini bildiradi. «Bosh egayin shogirding Berdaq bo'lib» degan satrlar orqali qoraqalpoq klassik shoirlari ham Alisher Navoiyni o'zlariga ustoz deb bilgani va ijodini chuqur o'rganganligini ta'kidlaydi. Bu fikrlar Berdaqning «Izlar edim» she'rida ham o'z isbotini topgan. Ibroyim Yusupov Navoiyni juda qadrlagan va shoir ananalarini yangi davr mezonlari asosida davom ettirgan. Shoir o'zbek adabiyotidan tashqari, Sharq mumtoz adabiyotini o'zlashtirgan. Bu esa, shoir ijodining rang-barang bo'lishiga xizmat qilgan. Ibroyim Yusupov muxammas, g'azal, ruboyi va boshqa janrlar da ham erkin ijod qila olgan.

Ijodkorning ko'pgina she'rlarida o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi iliq munosabatlari, qaynoq mehr va samimiyl muhabbat tasvirlanadi.

Tawıstay taranǵan ózbek qızları,

Doslıq izzetlerin kórsetti maǵan,

Eski doslarımday kúlisip bári,

Jaydı aldıma studentlik dasturxan.

Yuqorida keltirilgan to'rtlik orqali ikki xalqning o'rtasidagi qardoshlik munosabatlari, borni baham ko'rib, hamjihatlikda yashayotganligini anglaymiz.

Ibroyim Yusupov ning «Tugishganlik» she'rida xalqlar o'rtasidagi birdamlik va samimiyl muhabbatni ko'ramiz.

- O'zbekni o'z og'am etgan,
- Ulkan baxtni in'om etgan,
- Bir qozonda osh damlatgan,
- Mehri issiq tug'ishganlik.

Yuqorida keltirilgan satrlarda sodda tarizda ifodalash orqali, o'zbek va qoraqalpoq xalqining birdamligini tasvirlay olgan. Shoир oddiy so'z va tasvirlardan foydalansa ham she'rlari dilga yaqin, yurakdan yuraklarga etib boradi. Tushinish ham qiyinchilik tug'dirmaydi. Ibroyim Yusupovning she'riyati bir oqiganda juda sodda tuyilgani bilan, shoир oddiy tasvirlash orqali o'quvchida katta falsafiy g'oya uyg'ota oladi.

Bu esa shoirning mahorati, qobilyati va o'z ustida ishlashidan darak beradi.

Ibroyim Yusupov nafaqat o'zbek xalqi, shoirlari balki o'zbek xalqining taniqli madaniyat vakillariga atab ham she'rlar yozgan.

Shoир sanatimiz rivojiga katta hissa qo'shgan ijodkor Otajon Xudoyshukurovga atab «Joyhun shamollari» she'rini yozgan. She'rga maxsus kuy bastalangan va Otajon Xudoyshukurov tomonidan ijro etilgan. Bu qo'shiq xalqimiz orasida juda mashhur bo'lib, bugungi kunda ham yosh sana't va'killari tomonidan ijro etilib kelinmoqda.

- El mehri so'nmas yuzingdan,
- Ulug' daryoyi azimdan,
- Qoraqalpoq, Xorazmdan,
- Esar Jayhun shamollari.

Bu satrlardan san'at va ijod millat, hudud, yosh va til tanlamasligini anglaymiz. Xorazm geografik jihatdan bizga yaqin hudud bo'lganligi sababli, ikki hudud ijodkorlarining juda yaqin ijodiy aloqada bo'lgan va bu madaniy aloqalar kun sayin rivojlanib, hozirgi davrda ham davom etmoqta. Yana bir etiborga loyiq jihatni Ibroyim Yusupov «Joyhun shamollari» she'rini o'zbek tiliga o'zi tarjima qilgan. Bu esa, shoirning serqirra ijodkor ekanligidan dalolat beradi.

Ibroyim Yusupovning ózbek tiliga tarjima qilingan she'rlari talaygina. Shoир she'rlari turli yillarda takror-takror nashr qilingan. Shoир she'rlarini o'zbek tiliga Abdulla Oripov, Omon Matjon, Zulfiya, Yangiboy Qo'chqorov, Halima Xudayberdieva, Oydin Hojieva, Muhammad Ali, Maruf Jalil va boshqa shoirlar tarjima qilgan.

XULOSA

Ibroyim Yusupov va o'zbek she'riyati bir-biriga shambarshas bog'iangan tushunchaki, ularni ajratib qarashning yoki o'rganishning iloji yo'qdek. Sababi, shoир asarlarni tadqiq qilish jarayonida Ibroyim Yusupov ijodida o'zbek she'riyati va ijodkorlari katta ahamiyatga ega ekanligining guvohi bo'lamic. Aytish joyizki, o'zbek she'riyati tarixida ham Ibroyim Yusupov o'zining katta o'rni va o'quvchilariga ega. O'zbek xalqi shoирни qadrlaydi va she'rlarini sevib oqiydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR :

1. К.Мәмбетов. "Өзбек хәм қарақалпақ әдебий байланыслары". Нөкис. "Қарақалпақстан".1992.
- 2.И.Юсупов. "Қоратол"."Ғафур Ғулом" нашрёти Тошкент-1988
- 3.И.Юсупов. "Чўл торғайи" Ғафур Ғулом" нашрёти Тошкент-1972

THE MANIFESTATION OF METAPHOR IN DISCOURSE AND ITS PRACTICAL COMMUNICATIVE FUNCTIONS IN COGNITIVE LINGUISTICS

Abdunazarova Nazira Dilshodovna

Termez University of Economics and Service

Faculty 1 of Pedagogy and Social-Humanitarian Sciences

Department of Philology and Language Teaching (Uzbek language)

2nd year student

Annotation: This article analyzes the discursive features and communicative functions of metaphor within the framework of cognitive linguistics. The study of metaphor in Uzbek linguistics is highlighted not only as a linguistic unit but also as a cognitive phenomenon. The differentiation of metaphor according to discourse types and the manifestation of its cognitive-explanatory, pragmatic-argumentative, emotional-expressive, and heuristic functions are demonstrated. The research reveals the communicative possibilities of metaphor in various discourse contexts.

Keywords: cognitive linguistics, metaphor, discourse, communicative function, pragmatic-argumentative function, emotional-expressive function, heuristic function, literary text, thought process, metaphorical transfer, cognitive approach.

Аннотация: В данной статье проанализированы дискурсивные особенности и коммуникативные функции метафоры в рамках когнитивной лингвистики. Освещено изучение метафоры в узбекском языкоznании не только как языковой единицы, но и как феномена мышления. Показано, как метафора проявляется в зависимости от типов дискурса, а также её когнитивно-объяснительная, прагматико-аргументативная, эмоционально-экспрессивная и эвристическая функции. В результате исследования раскрыты коммуникативные возможности метафоры в различных дискурсивных условиях.

Ключевые слова: когнитивная лингвистика, метафора, дискурс, коммуникативная функция, прагматико-аргументативная функция, эмоционально-экспрессивная функция, эвристическая функция, художественный текст, процесс мышления, метафорический перенос, когнитивный подход.

Metaphor as a Cognitive-Linguistic Phenomenon. Language is not only a means of communication but also a crucial expression of human thinking and perception of the world. One of the new directions in linguistics—cognitive linguistics—focuses on the relationships between concepts, images, and cognitive processes as they are expressed through language. In this field, the phenomenon of metaphor holds a special place. Metaphor is not merely an artistic device, but rather one of the main mechanisms of human thought, knowledge structuring, and information sharing. Through metaphor, people comprehend complex and abstract concepts by expressing them through simple and familiar images. Therefore, metaphor manifests itself not only in language but also in thinking, culture, and social life.

The Cognitive-Linguistic Interpretation of Metaphor. In his work *Cognitive Linguistics*, Safarov investigates the cognitive aspects of metaphor and describes it as "a tool for thinking and acquiring knowledge about the world" [1]. He emphasizes that metaphor is not only a linguistic expression but also a product of thought. Mahmudov states that "metaphor is a speaker's way of perceiving and evaluating reality, and it is shaped in connection with socio-cultural factors" [2].

The Manifestation of Metaphor in Discourse and Its Communicative Functions

1. Cognitive-Explanatory Function: Metaphors help explain complex and abstract concepts through simpler and more familiar notions. In her work *Anthropocentric Study of Text*, Khudoyberganova highlights the explanatory function of metaphor and concludes that "metaphor facilitates perception by concretizing abstract concepts" [3].

2. Pragmatic-Argumentative Function: In the process of speech, metaphors serve as tools for influencing and persuading the listener. Yo'ldoshev, discussing the pragmatic aspects of metaphor, writes that "metaphor is used to enhance the effectiveness of speech and capture the listener's attention" [4].

3. Emotional-Expressive Function: Metaphors add emotional coloring to speech and express the speaker's subjective attitude. As Mirtojiev points out, "metaphor performs the function of expressing the speaker's emotional attitude and evoking similar emotions in the listener" [5].

4. Heuristic Function: Metaphor enables the formation of new ideas and concepts and helps in finding new solutions to problems. This function is particularly significant in scientific discourse.

Characteristics of Metaphor Based on Types of Discourse. Khudoyberganova, based on her analysis of metaphors in literary texts, shows that they “reflect the author’s worldview, ensure imagery, and create aesthetic impact” [3]. Yo’ldoshev also elaborates on the role of metaphor “in shaping the author’s style in literary texts” [4].

Mirtojiev, analyzing the lexical-semantic characteristics of metaphor, emphasizes that “metaphor is the main mechanism for expanding word meanings and generating new meanings” [5].

In conclude, metaphor as a cognitive-linguistic phenomenon plays an important role in human thinking, perception of the world, and the organization of knowledge. It serves not only as a tool for aesthetic expression but also as a means of facilitating logical understanding, effectively conveying information, and increasing the impact of speech. Moreover, metaphor manifests differently across various types of discourse—scientific, literary, journalistic—actively reflecting the author’s purpose, style, and worldview. Thus, metaphor is a vivid representation of human thought in language, and by studying it, we can better understand the deep connection between language and cognition.

REFERENCES:

1. Safarov, Sh. (2006). Cognitive Linguistics. Jizzakh: Sangzor.
2. Mahmudov, N. (2012). In search of comprehensive linguistic research. Uzbek Language and Literature, No. 5, pp. 3–16.
3. Khudoyberganova, D. (2013). Anthropocentric Study of Text. Tashkent: Fan.
4. Yo’ldoshev, M. (2008). Linguopoetics of Literary Text. Tashkent: Fan.
5. Mirtojiev, M. (2010). Semasiology of the Uzbek Language. Tashkent: Mumtoz So‘z.

O'ZBEK TILIDAGI IBORA VA MAQOLLARDA SIGIR LEKSEMASINING QO'LLANILISHI

Pirmaxmatov Shohjahon Avaz o'g'li

O'zDJTU stajor-o'qituvchisi

Inoyatov Javohir Ne'matillo o'g'li

O'zDJTU stajor-o'qituvchisi

Xalqimiz qadimdan ko'chmanchi va o'troq shaklda hayot kechirishgan. Sigirni asosan suti va go'shti uchun boqishgan. Qadimdan odamlar sigirning suti va go'shti uchun boqishgan. «Sigiring xuranda bo'lsa berdi Hudo» degani hamma narsani yeydigan, ishtahasi yaxshi hayvonlarga nisbat ishlatiladi. Agar sigir hamma narsani yeydigan bo'lsa, ko'p yeyishi natijasida sigirni sut berishida ham o'zgarish yuz beradi. Ko'p yegan sigir ko'p sut beradi. Albatta bu sigirning go'shtiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu albatta boquvchi uchun foydali hisoblanadi. Shu sababli sigir qancha ko'p yesa bu sigirni egasi uchun ham Hudo bergen risq hisoblangan.

Qadimdan beri ommalashib, tildan tilga o'tib kelayotgan shu kabi xalq maqollari hozirga qadar o'z ahamiyatinini yo'qotmasdan o'z ta'siri va ifodasini ko'rsatib kelyapti. "Sigir qanchalik qora bo'lmasin, uning suti doimo oq bo'ladi". Ya'ni, odam qanchalik yomon bo'lmasin, u odamda hali ham yaxshi narsa bor. Bu hayotda hech kim qadrsiz emas. Bu hayotda hech kim yo'q emas. Bu hayotda hech kim «ona uchun yaxshi» emas. Har kim biror narsa uchun yaxshi. Hech kim hamma narsa uchun yaxshi emas. Biror kishi siz kutgan narsani qila olmasa, bu odam hech narsa degani emas. Va kimdir siz qilayotgan ishni qila olmasa, bu ular shunday degani emas...

Bizning jamiyatda ayrim insonlar shu darajaga kelishganki hamma narsani, voqeа hodisalarни va hatto insonlarni ham tashqi ko'rinishiga qarab baholashadi. Buning qanchalik xato ekanligini ba'zida anglasalarda shu tuzum asosida yashayverishadi. To'g'ri tashqi ko'rinishdan ham nimanidir anglash mumkin ammo bu katta bir butunlikning kichik bo'lagi xolos. Har doim asl haqiqat ichki dunyoda ya'ni insonning qalbida namoyon bo'ladi. Yuqorida keltirilgan «Sigir qanchalik qora bo'lmasin uning suti doimo oq bo'ladi» maqolining mazmun mohiyatini chuqurroq o'rganadigan bo'lsak: Yer yuzidagi jamiyki insonlar kim bo'lishlari qanday bo'lishlaridan qat'iy nazar ularda qalb bor. Demak tashqi ko'rinish ko'pincha aldamchidir. Oqlik, soflik, tozalik esa ko'ngildadir. Sigirning

rangi qanday bo'lishidan qat'iy nazar uning suti doimo oppoq bo'lib qolar ekan, insonlarning tashqi dunyosi qanday bo'lsa ham qalbining eng tubidagi soflik o'zgarmasdan qolaveradi.

Maqollardagi hayvonlar tasvirlarini solishtirish va turli tillardagi so'zlar nafaqat ma'lum bir narsani kuzatishga imkon beradi. Majoziy ma'nolarning namoyon bo'lish tizimi, balki ma'lum bir tilda nima uchun ekanligini tushunish shaxsning ma'lum fazilatlarini ifodalash aniq bu hayvoni yobraz, ya'ni xalq madaniyati xususiyatlarini ochib berish.

"Sigirning yeliniga qarama,yemiga qarama".

Xalqimiz orasidagi bu maqolning manosini tahlil qiladigan bo'lsak,Sigir oddiy xalqning asosiy tirikchilik manbayi bo'lgan davrlarda juda qadrlangan.Bugungi kunda ilm fan rivojlanib sigirlar asosiy o'rinnegallamasligi mumkin.Garchi shunday bo'sada bugungi kunda ham qishloq joylaridagi aholi uchun sigiri asosiy boyligi hisoblanadi. Sigirga ko'proq yem xashak berilsa sigir ko'p sut beraveradi. Faqatgini unga ko'proq e'tibor bo'lsa bo'lgani. Unga ortiqcha e'tibor shart emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA INTERNET SAYTLARI:

- 1.O'zbek xalq maqollari. «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korapaniyasi Bosh tahririyati, 2005.
- 2.O'zbek tilining paremiologik lug'ati Berdiyarov Hamdam,Rasulov Razzak Toshkent" o'qituvchi" 1984.
- 3.kotowaza.jp.com.

NODIVERGENT KO'RINISHDAGI NOCHIZIQLI PARABOLIK TENGLAMA CHEGARALANMAGAN YECHIMLARINI TADQIQ QILISH

Ismoilova M. O.

University of Management and Future Technologies

munisaismoilova9718@gmail.com

Xabibullaeva Sh.A.

University of Management and Future Technologies

shahlo.m.d@gmail.com

KIRISH

Jahon miqyosida nodivergent ko'rinishdagi nochiziqli parabolik tenglama chegaralanmagan yechimlariga bag'ishlangan tadqiqotlar dolzarb va zarur hisoblanadi. Butenglamalar sistemasi bilan ifodalanadi va yonish jarayonlari (qattiq va suyuq yonuvchilarining alangalanish modellari), issiqlik yadroviy lazerli sintez, nochiziqli to'lqinlar nazariyasi, issiqlik diffuziya jarayonlari, filtratsiya kabi masalalarning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Shu sababli ikki komponentali blow-up rejimli nochiziqli muhitlarda matematik modellarni tadqiq etish matematikaning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirgi vaqtida dunyoda nodivergent ko'rinishdagi parabolik tipdagi tenglamalar sistemalari bilan tavsiflanuvchi diffuzion jarayonlarning matematik modellari keng tarqalmoqda. Bunday diffuziya jarayonlarining matematik modellari yonish nazariyasida qattiq va suyuq yonuvchilarining alangalanish, nochiziqli issiqlik o'tkazuvchanlik, gaz va suyuqliklar filtratsiyasi, biologik populyatsiya jarayonlarining kechishini ochib berishda keng qo'llanib kelinmoqda. Bugungi kunda A.A.Samarskiy, S.P.Kurdyumov, V.A.Galaktionov, M.Wang, M. Winkler va M.M.Aripov ilmiy maktablari yaratayotgan usullar taqribiy avtomodel yechimlarni o'rganishda yaxshi samara berayotgan bo'lsada, blow-up rejimli turli nochiziqli matematik modellar uchun hozirda yetarlicha asoslangan nazariyalar mavjud emas. Solishtirish prinsipiiga asoslangan solishtirish teoremlari turli nochiziqli masalar sinfini, hamda oddiy differensial tenglamalarni va xususiy hosilali tenglamalarni, ayniqsa nochiziqlilarini tatqiq qilishda muhim o'rin tutadi. Mazkur teoremlar ushbu yondashishning nochiziqli masalarni tatqiq qilishda differensial tengsizliklar metodi deb ham nomlanadi va u mazmun jihatdan chekli nochiziqli tenglamalar yechimining Chapligin usuli g'oyalarini rivojlantirishdan iboratdir. Mazkur usul, avval birinchi tartibli skalyar oddiy differensial tenglamalar uchun Koshi masalasi, so'ng nochiziqli parabolik tipdagi masalalar misolida namoyon etiladi. Bu masala birinchi bo'lib,

Chapligin tomonidan o'tgan asrning 20 yillari boshlarida qaralgan bo'lib, nochiziqli differensial tenglamalar nazariyasining samarali usullaridan birining boshlanishiga olib kelgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo'lgan biologik, biofizik, kimyoviy va seysmologik jarayonlarni matematik modellashtirish, sonli usullarini ishlab chiqish kabi dolzarb yo'nalishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada nochiziqli to'lqin tarqalishi, mexanikada g'ovak tuproqdag'i filtrlash, tibbiyotda mayda qon tomirlarida qonning harakatlanishi, issiqlik tarqalishi, biologik populyatsiyaning o'sishi va ko'chishi kabi jarayonlarni matematik modellashtirish, nochiziqli matematik modellarga xos effektlarni aniqlash va sonli-analitik yechish usullarini ishlab chiqish bo'yicha salmoqli natijalarga erishildi.

Masalaning qo'yilishi

Nochiziqli muhitda issiqlik diffuziyasi va yonish jarayonlarini modellashtiruvchi parabolik tipdagi tenglama uchun quyidagi Koshi masalasi avtomodel yechimlar sifat xossalarini tadqiqiga bag'ishlangan: $Q=(0,T) \times R$ sohada nodivergent turdag'i tenglama uchun Koshi masalasini ko'rib o'tamiz:

$$\frac{\partial u}{\partial t} = u^{\frac{3}{2}} \left[\frac{\partial}{\partial x} \left(u^{\frac{1}{2}} \frac{\partial u}{\partial x} \right) + \frac{\partial}{\partial y} \left(u^{\frac{1}{2}} \frac{\partial u}{\partial y} \right) \right] + u^2 \quad (1)$$

$$u|_{t=0} = u_0(x) \geq 0, \quad x \in R \quad (2)$$

Ma'lumki, (1) tenglama sonli parametrlari qiymatlariga bog'liq holda turli jarayonlarni ifodalaydi: biologik tur diffuziyasi, kuchsiz magnit maydonlarida rezistiv diffuziya hodisalari, infeksion kasalliklar tarqalishi, diffuzion yonish jarayonlarini va boshqalar. (1) tenglama $u = 0$ yoki $\nabla u = 0$ bo'ladigan sohada buziluvchi bo'lib, klassik ma'noda yechimga ega bo'lmasligi mumkin. Bunday holatlarda (1) tenglama uchun umumlashgan yechimlar izlanadi va o'rganiladi. Bu turdag'i masalalarni sonli yechish uchun avtomodel yechim quriladi va masala yechimlarining sifat ko'rsatkichlari o'rganiladi. Chiziqsiz ajratish usuli yordamida qurilgan avtomodel yechimlardan keyinchalik boshlang'ich yaqinlashish sifatida foydalanish mumkin

Yechimni quyidagi ko'rinishda izlaymiz

$$u(x,t) = \bar{u}(t)\omega(|x|, \tau(t))$$

$$\bar{u}(t) = A(T-t)^{\gamma}$$

$$\text{Bu yerda } \gamma = -1, \quad A = 1 |x| = \sqrt{x^2 + y^2}$$

$$\tau(t) = -A^2 \frac{(T-t)^{2\gamma+1}}{2\gamma+1}, \omega(\tau, x) = f(\xi), \quad \xi = |x| \tau^{-\frac{1}{2}}$$

$f(\xi)$, funksiyalar esa quyidagi avtomodel masalaning yechimi bo'ladi:

$$f^{\frac{3}{2}} \xi^{-1} \frac{d}{d\xi} \left(f^{\frac{1}{2}} \xi \frac{df}{d\xi} \right) + \frac{\xi}{2} \frac{df}{d\xi} + (f^2 - f) = 0$$

Asosiy natijalar.

(1) Tenglama sifat xossalarini tadqiq qilish uchun quyidagicha funksiyani qaraymiz:

$$f(\xi) = B(a + \xi^n)^m$$

$$\text{Bunda } m = \frac{1}{2}, \quad n = 2, \quad a > 0.$$

$$B = \sqrt{\frac{2}{3}}$$

Topilgan funksiya (1), (2) masalaning quyi yechimi ekanligini haqidagi teorema isbot qilingan.

Teorema. $B = \sqrt{\frac{2}{3}}, m = \frac{1}{2}$ va $n = 2$ bo'lganda $u_-(t, x) \leq u(t, x)$ shart bajarilsin.


U holda (1), (2) masala umumiy yechimlari uchun $t \rightarrow T$ da quyidagicha baholash o'rini $u_-(t, x) \leq u(t, x)$ $x \in R$

$$\text{bu yerda } u_-(t, x) = \sqrt{\frac{2}{3}} \cdot (T-t)^{-1} \cdot (a - \xi^2)^{\frac{1}{2}}$$

$\bar{u}(t), \xi$ – yuqorida aniqlangan funksiyalar.


Aniq yechimni topa olmaganda uni baholash yoki asimptotikasini topish ham yaxshi natija hisoblanadi. Topilgan quyi yoki yuqori yechimlar bizga aniq yechim haqida dastlabki ma'lumotlarni beradi.

Quyi va yuqori yechimlar grafik ko'rinishida quyidagicha aks etadi



quyi yoki yuqori yechimlarni birlashtirib aniq yechim haqida dastlabki ma'lumotga ega bo'lamiz u quyida chegaralangan soha oralig'ida bo'lishi ma'lum.

$u(t, x, y)$ va $v(t, x, y)$ bilan chegaralangan soha



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. AS Matyakubov, J.O. Khasanov, M.O. Ismoilova. Asymptotic representation of blow-up modes of parabolic equation not in divergence form with source. Сборник трудов I Международной научной конференции, 25-26 апреля 2022 года. Ташкент: Университет, 2022.–С. 204-205.
2. AS Matyakubov, DR Raupov. Numerical and visual modeling for blow-up modes in twocomponent nonlinear media. Проблемы вычислительной и прикладной математики. Номер: 2 (39), 2022, Стр: 40-51.
3. AS Matyakubov, DR Raupov. Explicit estimate for blow-up solutions of nonlinear parabolic systems of non-divergence form with variable density. AIP Conference Proceedings, Volume 2781, Issue 1, 020055 (2023).
4. Matyakubov A. S., Raupov D. R. Estimates of the blow-up solution of a cross-diffusion parabolic system not in divergence form //Bukhara–Samarkand–Tashkent. – 2019. – Т. 16. – С. 106.
5. M Aripov, AS Matyakubov, JO Xasanov. Global solvability and explicit estimation of solutions of a cross-diffusion parabolic system in non-divergent form with a source and variable density. Mathematics and its application. Contemporary mathematics and its application: abstracts of the international scientific conference 2021, 23-24

**YUQORI NAFAS YO'LI KASALLIKLARI BILAN OG'RIGAN O'SMIR
• QIZLARDA HAYZ SIKLINI BUZILISHINI PROGNOZLASH,
PROFILAKTIKA QILISH VA DAVOLASH**

Muallif: Tolipova B.M, TashPMI

Ilmiy rahbar: Navruzova R.S

KIRISH

O'smirlik davri – organizmda intensiv o'sish va gormonal o'zgarishlar davri bo'lib, bu davrda turli tashqi va ichki omillar hayz siklining buzilishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yuqori nafas yo'li infeksiyalari (angina, bronxit, faringit) o'tkir yoki surunkali kechishi organizm immunologik holatini pasaytiradi va gormonal disbalansga olib kelishi ehtimoli yuqori.

MAQSAD:

Yuqori nafas yo'li kasalliklari bilan og'rigan o'smir qizlarda hayz sikli buzilishining sabablarini o'rganish, ushbu buzilishlarni erta aniqlash, oldini olish choralarini va samarali davolash usullarini ishlab chiqish.

MATERIAL VA USLUBLAR:

Tadqiqotda 12–18 yoshdagi 100 nafar o'smir qizlar ishtirok etdi. Ular 2 guruhga ajratildi: yuqori nafas yo'li kasalliklari bilan og'riganlar (asosiy guruh) va sog'lomlar (nazorat guruhi). Hayz sikli monitoringi, gormonal tahlillar, ultratovush tekshiruvi va psixologik baholash o'tkazildi.

NATIJALAR:

- Asosiy guruhda hayz siklining buzilishi 65% hollarda qayd etildi (oligomenoreya, amenoreya, dismenoreya).
- Gormonal tahlillar LH/FSH nisbati va prolaktin miqdorining o'zgarishini ko'rsatdi.
- Psixologik stress darajasi yuqori bo'lgan bemorlarda hayz buzilishi xavfi oshgan.
- Immun tizimining zaiflashuvi gipotalamo-gipofizar-ovarial tizimga salbiy ta'sir ko'rsatgani aniqlangan.

XULOSA

Yuqori nafas yo'li kasalliklari bilan og'rigan o'smir qizlarda hayz sikli buzilishining yuqori darajada uchrashi ularning umumiy sog'lig'ini kuzatib borish va erta tashxis qo'yish zarurligini ko'rsatadi. Kompleks yondashuv – immunitetni mustahkamlash, gormonal muvozanatni tiklash va psixologik yordam – asosiy profilaktika va davolash usullari hisoblanadi.

XULOSA

Yuqori nafas yo‘li kasalliklari bilan og‘rigan o‘smir qizlarda hayz sikli buzilishining yuqori darajada uchrashi ularning umumiy sog‘lig‘ini kuzatib borish va erta tashxis qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi. Kompleks yondashuv – immunitetni mustahkamlash, gormonal muvozanatni tiklash va psixologik yordam – asosiy profilaktika va davolash usullari hisoblanadi.

MAKTAB SHAROITIDA ELEKTRON KUNDALIK VA ELEKTRON JURNALLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Faxxodova Nigina Muminjon qizi
Buxoro innovatsiyalar universiteti
“Ta’limda axborot texnologiyalari”
yo’nalishi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda maktab ta’lim jarayonida elektron kundalik va elektron jurnallardan foydalanishning samaradorligi o’rganilgan. Elektron tizimlarning afzalliklari, jumladan, ma’lumotlarni boshqarish qulayligi, shaffoflikni oshirishi, ish jarayonlarini avtomatlashtirish va ekologik samaradorlikka qo’shgan hissasi tahlil qilingan. Samaradorlikni baholash uchun ta’lim sifati, davomat va analitik imkoniyatlar kabi mezonlarga e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, tizimlarni joriy etishda duch kelinadigan texnik va moliyaviy qiyinchiliklar ham ko’rib chiqilgan. Xalqaro tajribalar – Estoniya, Finlandiya va Rossiya misolida elektron tizimlarning ta’limdagi ijobiy natijalari yoritilgan. Tezisda elektron kundalik va jurnallarni samarali joriy etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan bo‘lib, ular milliy ta’lim tizimini zamonaviy lashtirish uchun muhimdir.*

Kalit so‘zlar: *elektron kundalik, elektron jurnal, samaradorlik, ta’limv sifatini oshirish, raqamlı texnologiyalar.*

KIRISH

Raqamlı texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda. Xususan, elektron kundalik va elektron jurnallar maktablarda ta’lim jarayonini boshqarishni avtomatlashtirish, shaffoflikni oshirish va ma’lumot almashish samaradorligini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu tezisda elektron kundalik va jurnallardan foydalanish samaradorligi, ularning afzalliklari va joriy etishdagi qiyinchiliklar tahlil qilinadi.

Elektron kundalik va elektron jurnallar maktablarda ta’lim jarayonini boshqarishni avtomatlashtirishga qaratilgan zamonaviy vositalardan biri bo‘lib, ularning samaradorligini tahlil qilish quyidagi sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi:

Elektron kundalik va jurnallarning afzalliklari:

Ma'lumotlarni saqlash va ulardan foydalanish: Ma'lumotlar bulut texnologiyalari orqali saqlanadi, bu esa ular yo'qolish xavfini kamaytiradi va istalgan vaqtda kirish imkonini beradi.

Shaffoflik va nazorat: Ota-onalar o'z farzandlarining baholari va darsga qatnashuvini onlayn ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

O'qituvchilar uchun qulaylik: Baholarni kiritish, dars jadvalini tuzish va o'quvchilarning davomati haqida hisobotlar tayyorlash jarayonini osonlashtiradi. Atrof-muhitga ijobiy ta'sir: Qog'oz iste'molini kamaytirib, ekologik samaradorlikni ta'minlaydi.

Elektron kundalik va jurnallarning samaradorligini o'lchash Ta'lim sifatiga ta'siri: Elektron tizimlar orqali ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida aloqa kuchayadi, bu esa o'quvchilarning intizomi va o'qish samaradorligini oshiradi.

Davomatni yaxshilash: Elektron jurnallar orqali davomatni kuzatish va ota-onalarni xabardor qilish samaradorlikni oshiradi.

Ish jarayonlarini tezlashtirish: O'qituvchilar va maktab ma'muriyati uchun vaqt tejaladi, chunki hisobotlar avtomatlashtirilgan holda olinadi.

Analitik imkoniyatlar: Ma'lumotlarni tahlil qilish orqali o'quv jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularga tezkor yechim topish imkonini beradi.

O'rganish usullari: Elektron kundalik va jurnallarning samaradorligini baholashda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

So'rovnomalar va intervyular: O'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilarning fikrlarini o'rganish.

Statistik tahlil: Elektron tizim joriy etilgandan keyin baholar va davomatdagi o'zgarishlarni tahlil qilish.

Tajriba-sinov ishlari: Elektron tizimlar bilan ishslashdan oldingi va keyingi natijalarni taqqoslash.

Vaqt va resurslarning tejash o'lchovlari: Tizimning o'qituvchilar va boshqaruv uchun sarflanadigan vaqt ni kamaytirishdagi hissasini o'rganish. Amalga oshirishdagi qiyinchiliklar va texnik muammolar: Internetga ulanish yoki tizimdagi nosozliklar ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Foydalanuvchilarni o'rgatish: O'qituvchilar va ota-onalarga elektron tizimlar bilan ishslashni o'rgatish vaqt talab etadi.

Moliyaviy xarajatlar: Bunday tizimlarni joriy etish va ularni qo'llab-quvvatlash uchun mablag' zarur.

Elektron kundalik va jurnallarning global tajribasi

Finlandiya, Estoniya va Singapur tajribasi: Ushbu davlatlarda elektron ta'lim tizimlari muvaffaqiyatli amalga oshirilib, ta'lim sifatining sezilarli darajada oshishiga olib kelgan.

Qozog'iston va Rossiya misoli: Elektron kundalik joriy etish orqali o'quv jarayonlarini boshqarishda shaffoflikka erishilgan.

Elektron kundalik va jurnallarning afzalliklari

Elektron kundalik va jurnallar nafaqat o'qituvchilarga, balki o'quvchilar va ota-onalarga ham bir qancha qulayliklar yaratadi:

Ma'lumotlarni boshqarish qulayligi: Bulut texnologiyalari asosida ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va ulardan istalgan vaqtida foydalanish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, uzoqdan ta'lim yoki kutilmagan texnik nosozliklar holatida samarali hisoblanadi.

Shaffoflik va samaradorlik: Ota-onalar o'z farzandlarining baholari, davomati va uy vazifalarini real vaqt rejimida kuzatib borishi mumkin. Bu o'quvchilar intizomini mustahkamlaydi va ta'lim jarayonidagi shaffoflikni ta'minlaydi.

Ish jarayonlarini avtomatlashtirish: O'qituvchilar dars jadvallarini rejalashtirish, hisobotlar tayyorlash va baholarni kiritish kabi vazifalarni avtomatlashtirish orqali o'z vaqtlarini tejashadi.

Ekologik samaradorlik: Qog'ozdan foydalanishni kamaytirib, ekologik barqarorlikka hissa qo'shami.

Elektron kundalik va jurnallarning samaradorligini o'lchash

Elektron tizimlarning samaradorligini baholash uchun quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot o'tkazish mumkin:

Ta'lim sifatiga ta'siri:

O'quvchilar o'z faoliyatlarini elektron kundalikda kuzatib, baholar va vazifalar haqida xabardor bo'ladi. Bu ularning o'qishga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi.

Davomatni yaxshilash:

Elektron jurnallar o'quvchilarning darsga qatnashishini nazorat qilish va ota-onalarni xabardor qilishni osonlashtiradi.

Ish jarayonlarini tezlashtirish:

O'qituvchilar hisobot tayyorlashga ketadigan vaqtini qisqartiradi va asosiy e'tiborni dars sifati va o'quvchilarning bilim olishiga qaratadi.

Analitik imkoniyatlar:

Elektron tizimlar orqali o'quvchilar va sinflarning o'qish samaradorligini tahlil qilish mumkin. Bu esa ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun aniq choralar ko'rishga yordam beradi.

Joriy etishdagi qiyinchiliklar

Texnik infratuzilma muammolari:

• Maktablarda barqaror internet tarmog'i va zamonaviy kompyuter texnikasining yetishmasligi elektron tizimlarning joriy etilishini sekinlashtiradi.

• Foydalanuvchilarni tayyorlash: O'qituvchilar va ota-onalarni elektron tizimlardan samarali foydalanishga o'rgatish uchun vaqt va resurslar talab etiladi.

• Moliyaviy xarajatlar: Elektron tizimlarni joriy etish va texnik xizmat ko'rsatish mablag' talab qiladi.

• Xalqaro tajriba Elektron kundalik va jurnallar ko'plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli joriy etilgan.

Estoniya: Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish orqali o'quvchilar va o'qituvchilarning samaradorligini sezilarli oshirgan.

Finlandiya: Elektron kundalik ota-onalar va maktablar o'rtasida samarali aloqa vositasi sifatida keng qo'llaniladi.

Rossiya: Elektron tizimlar maktab davomatini yaxshilash va ta'lim sifatini oshirishda muvaffaqiyat qozongan.

Xulosa va tavsiyalar:

Elektron kundalik va jurnallarni samarali joriy etish uchun quyidagi choralarni ko'rish lozim:

Maktablar texnik infratuzilmasini yaxshilash va barqaror internet tarmog'i bilan ta'minlash.

O'qituvchilar va ota-onalarni doimiy ravishda o'qitish va malakasini oshirish.

Elektron tizimlarni milliy ta'lim standartlariga moslashtirish va mahalliy sharoitlarga mos vositalarni ishlab chiqish.

Elektron kundalik va jurnallar ta'lim tizimini zamonaviylashtirishning muhim qismi hisoblanadi. Ularning joriy etilishi nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki jamiyatda ta'lim sifati va shaffoflikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Elektron kundalik va jurnallarning samaradorligini oshirish uchun: Maktablar texnik infratuzilmasini yaxshilash. O'qituvchilar va ota-onalarni muntazam ravishda o'qitish. Elektron tizimlarni milliy ta'lim standartlariga moslashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lif to'g'risida"gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi" bo'yicha farmoni.
3. Akhmedov A.A., "Raqamli ta'lif tizimlari va ularning maktablarda qo'llanilishi". O'zbekiston Ta'lif Tadqiqotlari Jurnali, 2022.
4. Karimova D.T., "Elektron kundalik va uning ta'lif sifatini oshirishdagi o'rni". Ta'lif innovatsiyalari, 2023.
5. European Commission, "Digital Education Action Plan 2021-2027". URL: <https://ec.europa.eu>.
6. UNESCO, "Education in a Post-COVID World: Nine Ideas for Public Action". 2021. URL: <https://unesco.org>.
7. Rossiya Federatsiyasi Ta'lif Vazirligi, "Elektron kundalik va jurnalni joriy qilishning samaradorlik tahlili". Moskva, 2021.
8. Estoniya Ta'lif Vazirligi, "Digital solutions in schools: e-Diary implementation". Tallinn, 2022.
9. Elektron kundalik loyihasining rasmiy sayti: <https://kundalik.com>.
10. Elektron jurnallar va raqamli tizimlarni joriy etish bo'yicha xalqaro ekspert fikrlari: <https://edtechreview.in>.
11. Davletyarov, A., D. Suyunov, and A. Kenjabaev. "State regulation of the digital transformation of the economy." American Journal of Business Management, Economics and Banking 9 (2023): 145-150.
12. Suyunov, Dilmurod, and Aman Kenjabaev. "Achievements And Problems in Further Development of The Digital Economy in UzbekistanScientific Considerations." Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research 1.7 (2023): 38-45.
13. Suyunov, D. X., and E. A. Xoshimov. "The main directions of development of the corporate governance system in Uzbekistan in modern conditions." Economics and Innovative Technologies 2019.4 (2019): 11.
14. Suyunov, Dilmurod Kholmuradovich. "Scientific Foundation For Implementation Of The Compliance Control System At Corporate Enterprises." The American Journal of Management and Economics Innovations 3.06 (2021): 138-145.
15. Suyunov, Dilmurod Kholmuradovich. "Scientific Foundation For Implementation Of The Compliance Control System At Corporate Enterprises."
16. Суюнов, Дилмурод, and Элмурод Хошимов. "Замонавий шароитларда Ўзбекистонда корпоратив бошқарув тизими

ривожланишининг асосий йўналишлари." Экономика и инновационные технологии 4 (2019): 197-210.

17. Суюнов, Дилмурод Холмуродович, and Элмурод Абдусатторович Хошимов. "ЗАМОНАВИЙ ШАРОИТЛАРДА ЎЗБЕКИСТОНДА КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ РИВОЖЛАНИШИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ."

18. Olimovich, Aliev Kibar, M. Butabaev, and Suyunov D. Kh. "Project management in the system of strategic company management." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.7 (2023): 40-44.

Olimovich, Aliev Kibar, M. Butabaev, and Suyunov D. Kh. "PROJECT MANAGEMENT IN THE SYSTEM OF STRATEGIC COMPANY MANAGEMENT." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.7 (2023): 40-44.

SO'Z TURKUMLARINI O'RGATISH METODIKASI ("OT" SO'Z TURKUMI MISOLIDA)

Jo'rayeva Go'zal Qodirovna

ISFT Filologiya va tillarni o'qitish kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada ot so'z turkumini maktab darsliklarida berilishi, boshlang'ich sinfda so'z turkumi, ot mavzularining o'qitilishi yoritilgan. Mavzularni tushuntirishda bola bilan olib boradigan ish turlari tavsija qilingan.

Kalit so'z va iboralar: so'z turkumi, boshlang'ich sinf, so'z, shaxs, narsa, harakat, holat, so'roq.

Abstract: This article discusses the teaching of noun phrases in school textbooks, teaching noun phrases in primary school, and teaching noun topics. Types of work with children to explain the topics are recommended.

Keywords and phrases: noun phrase, primary school, word, person, thing, action, state, question.

Аннотация: В этой статье рассматривается преподавание именных фраз в школьных учебниках, преподавание именных фраз в начальной школе и преподавание именных тем. Рекомендуются виды работы с детьми по объяснению тем.

Ключевые слова и фразы: именная фраза, начальная школа, слово, лицо, вещь, действие, состояние, вопрос.

So'z turkumlari ustida ishslash metodikasining lingvistik asosi so'zlarning leksik-grammatik, morfologik va sintaktik belgilariga ko'ra turli guruhlarga ajratilishi, ya'ni so'z turkumlari haqidagi ilm hisoblanadi.

So'zlarni leksik-grammatik turkumlarga ajratishda uch belgiga:

1) leksik ma'nosi (nimani ifodalashi, ya'ni shaxs, narsa, harakat yoki holat, belgi kabilarning umumlashtirilgan ma'nolari),

2) morfologik (so'zning turli shakllari tizimi)

3) sintaktik (turli morfologik shakllarning sintaktik vazifa bajarishi) belgilariga asoslaniladi. Demak, so'z turkumlari ustida ishslash o'quvchilarning muayyan guruhdagi so'zlarni umumlashtirilgan ma'nolarini, kishilarning aloqa vositasi sifatidagi rolini tushunib olishlariga qaratilishi zarur.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l) bilan umumiy tanishtirilgandan so'ng har bir leksik-grammatik guruh alohida

o'rganiladi. Bu so'z turkumlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichidayoq ularni taqqoslashga qulay sharoit yaratadi va shakllantiriladigan grammatic tushunchaning asosiy tomonlarini aniqroq ajratishga imkon beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lning quyidagi xususiyatlarini bilib oladilar:

- 1) so'z nimani bildirishi (shaxs, narsa, belgi, miqdor va tartib, harakat yoki holat);
- 2) qanday so'roqlarga javob bo'lishi;
- 3) o'zgarish-o'zgarmasligi, qanday doimiy kategoriyalari mavjudligi;
- 4) gapda, asosan, qanday bo'lak vazifasida kelishi.

O'quvchilar mana shu o'rgangan belgilari asosida so'z turkumlarini taqqoslaydilar. Ular nimani o'rganganlariga qarab, har bir so'z turkumining grammatic belgilari haqidagi bilimlari asta kengaya va chuqurlasha boradi. Dasturga ko'ra, boshlang'ich sinfda so'zlar dastlab javob bo'ladigan morfologik so'roqlariga qarab guruhanadi. 3-sinfda "So'z turkumi" tushunchasi shakllantiriladi. O'quvchilar har bir so'z turkumiga xos ayrim belgilar (so'z turkumlarining umumlashtirilgan leksik ma'nolari, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar, ot, sifat, son va fe'lning gapdagi vazifasi) bilan tanishtiriladi. 4-sinfda so'z turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari haqidagi bilim chuqurlashtiriladi: o'quvchilar otlarning egalik va kelishiklar bilan o'zgarishini, sifat va sonning gapdagi vazifasini, kishilik olmoshlari va ularning kelishiklar bilan turlanishini, fe'llarda shaxs-son va zamonni o'rganadilar. Quyidagi jadvalda boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z turkumlari yuzasidan bilimlari hajmi ko'rsatilgan:

So'z turkumlari: Ot, sifat, son, olmosh, fe'l.

Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe'l
1.Shaxs, narsa va joy nomini bildiradi.	1. Shaxs va narsaning belgisini bildiradi.	1.Shax s narsaning sanog'ini va tartibini bildiradi.	1.Kishili k olmoshlari shaxsni bildiradi va ot o'rnida qo'lanadi.	1.Shax s, narsaning haraka tini bildiradi.
2.Kim? nima? qayer? so'roqlariga javob bo'ladi.	2.Qan day? yoki qanaqa? so'rog'iga javob	2.Nech a? yoki nechanchi so'rog'iga javob	2.Kishili k olmoshlari kim? so'rog'iga javob bo'ladi.	2.Nima qildi? nima qiladi? nima

	bo'ladi.	beradi.		qilyapti ? nima qilmoqchi? kabi so'roqlariga javob bo'ladi.
3. Birlik va ko'plikda qo'llanadi	3 O'zgar- maydi	3.O'zga r-maydi	3.Ular birlik va ko'plikda bo'ladi.	3.Bo'lis hli va bo'lishsiz shaklda qo'llanadi.
4.Egalik qo'shimchalar i bilan o'zgaradi.	4.Gap da ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.	4.Gapd a ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.	4.Kishili k olmoshlari kelishik qo'shimc ha-lari bilan qo'lanadi	4.Shax s-son qo'shim cha- lari bilan tuslanadi.
5.Kelishi k qo'shimchalar i bilan turlanadi.	5. Sifatlar yasaladi	5 .Sonlar yasalm aydi	5.Ular gapda bosh va ikkinchi darajali bo'laklar vazifasida keladi.	5 Uch zamoni bildiradi.
6.Gapda ega yoki ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi			6. Olmoshlar yasalma ydi.	6. Gapda kesim vazifasida keladi.
7.Otlar yasaladi				7.Fe'la r yasaladi

O'quvchilarda so'z turkumlarini bilish ko'nikmasi ularning belgilari yig'indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Masalan, gul, guldor, gulladi so'zlarining qaysi so'z turkumiga kirishini bilish uchun 2-sinf o'quvchisi quyidagicha fikr yuritadi: nima? – gul, bu so'z narsani bildiryapti, ko'plikda qo'llanadi – gullar, bu – ot; guldor so'zi qanday? so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning belgisini bildiryapti, bu – sifat; gulladi so'zi nima qildi? so'rog'iga javob bo'lyapti, narsaning harakatini bildiryapti, bo'lishsiz shaklda qo'llanadi – gullamadi, bu – fe'l.

Boshlang'ich sinflar dasturi o'quvchilarni so'z turkumlari mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga bo'linishi bilan maxsus tanishtirishni ko'zda tutmaydi, ammo o'qituvchi bolalarni so'z turkumlarining belgilari bilan amaliy tanishtiradi. So'z turkumlarini o'rganishdagi asosiy vazifa o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, lug'atini yangi ot, sifat, son, fe'llar bilan boyitish, o'quvchilar shu vaqtgacha foydalanib kelayotgan so'zlarning ma'nosini aniq tushunishiga erishish, bog'lanishli nutqda u yoki bu so'zdan o'rinni foydalanish malakasini o'stirish hisoblanadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish uchun so'z turkumlarini o'rganish jarayonida sinonim, antonimlar (atamalar berilmaydi) ustida muntazam ish olib boriladi, o'quvchilar ko'p ma'noli so'zlar, ulaming o'z va ko'chma ma'noda ishlatalishi bilan tanishtiriladi. Bunda ta'llimni o'quvchilaming shaxsiy tajribalari, bevosita ko'rganlari, radiodan eshitganlari, kitobdan bilib olganlari bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda kuzatish, muhim narsalarni sezish ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini boyitish bilan bir vaqtda ularning nutqini o'stirish vazifasi ham amalga oshiriladi.

OT SO'Z TURKUMINI O'RGANISH METODIKASI

"Ot" mavzusini o'rganish tizimi maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, bunda shu so'z turkumining umumlashtirilgan ma'nosi va grammatic belgilari aniq izchillikda, bir-biri bilan ilmiy asoslangan bog'liqlikda o'rganiladi, shuningdek, otdan nutqda to'g'ri foydalanish va to'g'ri yozish malakasini shakllantirish maqsadida bajariladigan mashqlar asta murakkablashtira boriladi.

Til hodisasi sifatida otning xususiyatlari, uni o'rganish vazifalari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, har bir sinf uchun material hajmi, ular o'rganish izchilligi belgilangan. Boshlang'ich sinflarda otni o'rganish vazifalari quyidagilar:

- 1) "Ot" haqidagi grammatic tushunchani shakllantirish;
- 2) Kim? so'rog'iga javob bo'lgan (shaxs bildirgan) otlardan nima? so'rog'iga javob bo'lgan (narsa, hayvon, jonivor va boshqalarni bildirgan) otlarni farqlash ko'nikmasini hosil qilish;

- 3) Kishilarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hayvonlarga qo'yilgan nomlar va geografik nomlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasini shakllantirish;
- 4) Otlarda son (otning birlik va ko'plikda qo'llanishi) bilan tanishtirish;
- 5) Otlarni egalik qo'shimchalari bilan to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish;
- 6) Otlarning kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida malaka hosil qilish;
- 7) O'quvchilar lug'atini yangi otlar bilan boyitish va ulardan nutqda aniq, o'rinali foydalanish malakasini o'stirish;
- 8) So'zlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirishni bilish.

Bu vazifalarning har biri alohida emas, balki bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda hal etiladi. Shu bilan birga, "Ot" mavzusini o'rganishning muayyan bosqichida bajarish lozim bo'lgan bir vazifani hal qilishga ko'proq ahamiyat beriladi. Masalan, 1-2-sinflarda so'z turkumi sifatida otning belgilari (nimani bildirishi, so'roqlari) o'rganiladi, 3-sinfda esa otga atama beriladi, birlik va ko'plikda qo'llanishini o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. 4-sinfda otning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi, kelishiklar bilan turlanishi va kelishik qo'shimchalarining yozilishini o'rganishga e'tibor qaratiladi. O'quvchilarning nutqi va tafakkurini o'stirish vazifasi esa mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida hal qilinadi. Grammatik materialni o'rganish va orfografik malaka hosil qilishning butun jarayoni o'quvchilar lug'atini boyitishga, bog'lanishli nutq malakalari va fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga qaratiladi.

So'z turkumi sifatida ot muayyan leksik ma'nolari va grammatik belgilari bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma'nosini shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Ot jonli mavjudotlar (kishi, qush, hayvon, asalari), yer va osmonga oid narsalar (quyosh, yulduz, daryo, tog'), o'simliklar (paxta, beda, gul), voqealar (yig'in, majlis), tabiat hodisalari (shamol, bo'ron, yomg'ir, momaqaldiroq), belgi-xususiyat (ahillik, kuchlilik, samimiyat), harakat-holat (uyqu, sevinch, kurash), o'rinni va vaqt (yozi, bahor, joy) nomlarini bildiradi.

Otlarning grammatik belgilari: otlar birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi, kelishiklar bilan turlanadi, gapda ko'proq ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, shuningdek, hol, va kesim vazifasida keladi. Ot nutqda sifat, son, olmosh, fe'l bilan birika oladi.

Otning ma'nolari va grammatik belgilari xiyla murakkab, shuning uchun ham ot haqidagi bilim o'quvchilarda amaliy vazifalarni bajarish jarayonida asta shakllantira boriladi.

Otni o'rganishda izchillik. Otni o'rganishga tayyorlov bosqichi savod o'rgatish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqichda o'quvchilar shaxs-narsalarni va ularning nomi bo'lgan so'zlarni farqlashga o'rganadilar, so'zning leksik ma'nosiga e'tibor ko'proq qaratiladi, ma'nolarini hisobga olgan holda so'zlar (qushlar, meva va sabzavotlar, kiyimlar va hokazolarni bildirgan otlar)ni guruhlash ko'nikmasi shakllantiriladi. So'zlarni leksik ma'nosi asosida guruhlash mashqlari otlarni taqqoslash, o'xshash tomonlarini aniqlash, umumlashtirish ko'nikmasini o'stiradi. Shunga qaramay, grammatik tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilar so'zning aniq ma'nosini yetarli bilmaydilar, so'zning leksik ma'nosini bilish bilan birgalikda uning grammatik belgilarini ham o'zlashtirish zarur.

Keyingi bosqichda otning leksik ma'nolari va grammatik belgilari ustida maxsus ishlanadi (kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'lishi, shaxs, narsani bildirishi tushuntiriladi). O'quvchilar kim? so'rog'iga javob bo'lgan otlarni nima? so'rog'iga javob bo'lgan otlardan farqlashni, ularni so'roq berish bilan ajratishni o'rganadilar, o'quvchilarda mavhum grammatik tafakkur o'sa boradi, ularda atoqli otlarni bosh harf bilan yozish ko'nikmasi shakllana boradi.

2-sinfda otlarning leksik ma'nosi, atoqli va turdosh otlar (atamasiz) haqidagi bilim chuqurlashtiriladi.

"Ot" tushunchasini shakllantirish uchun shu so'z turkumiga kiradigan otlarni asosiy leksik guruhlarga ajratish, barcha otlarga xos bo'lgan belgilarni, ularning nutqimizdagi o'rnini ko'satish muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda mavzuni o'rganishga bag'shlangan birinchi darslardayoq shaxs va narsani bildiradigan so'zlar bir tizimga solinadi, kishilar, buyum, o'simliklar va hayvonlar, tabiat hodisalarini, voqealarni bildiradigan so'zlar guruhlarga ajratiladi. Shu so'zlarning hammasi uchun umumiyl bo'lgan belgilar aniqlanadi: bu so'zlar shaxs, narsalarni bildirib kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladi.

Dasturga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchilarini sifat va boshqa so'z turkumlaridan yasalgan mavhum ma'nodagi (yaxshilik, go'zallik, ishonch, sevinch, o'kinch, qo'rqinch, tayanch kabi) otlar bilan tanishtirish talab etilmaydi. Ammo matnda uchrasa va o'quvchilar qiziqib so'rasalar, otning bolalar o'rgangan belgilari asosida (nima? so'rog'iga javob bo'lishi, shaxs yoki narsa nomini bildirishi) tushuntiriladi. Otlarning nutqda katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun o'qituvchi o'qish kitobidan matn tanlab, o'quvchilarga matndagi otlarni topishni, so'ngra matnni shu so'zlarsiz o'qishni topshiradi. O'quvchilar matndagi otlarni tushirib qoldirib o'qiganda, matn mazmunini tushunib bo'lmasligini anglaydilar. Xulosa chiqariladi: ot atrofimizni o'rab olgan shaxs va narsalarning nomi, bu so'zlarsiz bir-birimizga o'z fikrimizni tushuntira olmaymiz.

Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi. 3-sinfda “Otlar, ya’ni otlaming birlik va ko‘plikda qo‘llanishi” ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarda:

- 1) birlik va ko‘plikda qo‘llangan otlarning ma’nosи va qo‘shimcha orqali farqlash
- 2) birlikdagi otdan ko‘plik shaklidagi va, aksincha, ko‘plikdagi otdan birlik sondagi ot hosil qilish
- 3) gapda so‘zlarning bog‘lanishini hisobga olgan holda, otlardan nutqda to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Bu sinf o‘quvchilariga faqat birlikda qo‘llanadigan otlar. birlik shaklida qo‘llangan armiya, qo‘shin, xalq kabi otlar ko‘plik ma’nosini bildirishi, bunday otlarga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda anglatadigan ma’nosи maxsus tushuntirilmaydi. Agar o‘quvchilar bu haqda savol bersalar, soddagina shaklda tushuntirish mumkin.

4-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik shakllaridan ongli foydalanish va kelishik qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozishga o‘rgatish hisoblanadi. Bu sinfda ot quyidagi izchillikda o‘rganiladi:

- 1) otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha berish;
- 2) ko‘plikdagi otlarning turlanishini o‘rgatish;
- 3) har bir kelishikning xususiyatlarini alohida o‘rganish va u bilan bog‘liq holda kelishik qo‘shimchalarining yozilishi haqida ko‘nikma hosil qilish.

Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda ot yaxlit holda o‘rganiladi va uni o‘rganish o‘quvchilar shu so‘z turkumining belgilarini, vazifasini o‘zlashtirishiga, shuningdek, ularda kelishik qo‘shimchalarini to‘g‘ri yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratiladi.

1. H. Jamolxonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent – “Talqin” - 2005
2. Rahmatullayev. Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili – Toshkent: Universitet, 2006
3. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbanova, Z. Yunusova, M. Abduzalova Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent – 2009.
4. Ro‘ziyeva. D., Usmonoyeva. M., Holiqova. Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanishi. – Toshkent 2013.
5. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qitish metodikasi. -T.: Noshir, 2009.
6. Л.И.Рахматуллаева. Методика преподавания родного языка. – Т.: Учебноепособие. МолияИктисад, 2007.

ANEMIYA VA UNI DAVOLASHDA YANGICHA YONDASHUV HAMDA ZAMONAVIY METODLAR

Tursunova Madinabonu Rustamjon qizi
Ismoilova Shirinzabon Rustambek qizi
Ahmedova Shahnoza Baxtiyorjon qizi

1Kokand University Andijon filiali tibbiyat fakulteti

1-bosqich talabasi yoqutoybotirova1@gmail.com

2Kokand University Andijon filiali tibbiyat fakulteti

1-bosqich talabasi

3Kokand University Andijon filiali tibbiyat fakulteti

1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola kamqonlik kasalligi, uning belgilari, davolash usullari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asoratlarni o'rGANISHNI o'z ichiga oladi. Bu kasallik noto'g'ri ovqatlanish yoki temirning so'riliishi bilan bog'liq muammolar tufayli yuzaga kelishi mumkinligini o'rGANISHGA qaratilgan.*

Kalit so'zlar. *Anemiya, gemoglobin, postgemorragik anemiya, gemolitik anemiya, temir, funikulyar miyeloz, giperpolimenoreya, surunkali gepatit va gepatioz.*

KIRISH

Anemiya (yunoncha "an" – inkor qo'shimchasi va "haima" – qon), kamqonlik – qonda eritrotsitlar soni va gemoglobin miqdorining kamayishi, sifatining o'zgarishi bilan kechadigan kasallik. Anemiyaga qon yaratilish jarayonining buzilishi, asosiy qon yaratuvchi to'qima – ko'mikning o'z funksiyasini yetarli bajara olmay qolishi sabab bo'lishi mumkin. Temir va vitamin B12 yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan anemiya birmuncha keng tarqalgan. Anemiya (kamqonlik) – hajm birligidagi qonda eritrotsitlar soni va gemoglobin miqdori kamayib ketishi bilan ta'riflanadigan kasallikkidir. Bunda to'qimalarga kislorod yetkazib berish jarayoni izdan chiqadi. Anemianing sabablari, xuddi klinik ko'rinishlari singari, juda har xil. Lekin, anemianing barcha turlarini 3ta asosiy guruhga bo'lish mumkin.

1. Postgemorragik anemiya – bu o'tkir va surunkali bo'lib, travmadan keyin yoki me'da ichak yo'li, ayollar jinsiy a'zolari shikastlanganida boshlanadigan turi.

2. Gemolitik anemiya – eritrotsitlar tuzilishida tug'ilishdan o'zgarishlar borligiga aloqador anemiyalar.

3. Eritropoez izdan chiqishi tufayli boshlanadigan anemiyalar.

Anemiya darajalari og'irlik darajasi bo'yicha anemiya quyidagicha tasniflanadi:

Yengil - Gemoglobin darajasi 100 g/l dan yuqori, qizil qon tanachalari 3 T / l dan yuqori;

O'rtacha - Gemoglobin darajasi 66 dan 100 g / l gacha, qizil qon tanachalari 2 dan 3 T / l gacha;

Og'ir - Gemoglobin darajasi 66 g/l dan kam.

JSST ma'lumotlariga ko'ra homilador ayollarning 80-90% kamqonlik bilan og'riydarlar. Vitamin B12 yoki folat kislota yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan anemiya ancha kam uchraydi. Anemianing bu xilida o'ziga xos alomatlar: til achishishi, kasallik o'tkazib yuborilganda nerv sistemasining zararlanish (funkulyar miyeloz) belgilari kuzatiladi. Bu xil anemianing oldini olish uchun me'da-ichak yo'lining surunkali kasallikkari, ayniqsa ich ketishi bilan o'tadigan kasallikkarni o'z vaqtida aniqlab davolash juda muhim.

Anemianing kelib chiqish sabablari. Oshqozon – ichak traktidan qon ketishlar(gastrit, oshqozon va o'nikki barmoqli ichak yarasi kasallikkari, venalarning varikoz kengayishi, gemorroy) va shu bilan birga temir moddasining oshqozon-ichak traktidan yaxshi so'rilmasligi oqibatida kelib chuqadi. Ayollarda esa ko'pincha hayz siklining ko'p miqdorda bo'lishi(giperpolimenoreya, bachardon miomasi, adenomioz), homilador ayollarda jigar patologiyasining (surunkali gepatit va gepatioz) sababi bo'lishi mumkin. Noto'g'ri ovqatlanish, ekologiyaning iflosligi yoki irsiy kasallik sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin.

Anemianing klinik belgilari. Eritrotsitlar soni sal kamaygani yoki raso bo'lgani holda, qonda gemoglobin miqdorining ozayishi temir yetishmasligiga aloqador anemianing asosiy belgilaridandir.

Anemianing asosiy belgilari:

- teri va shilliq pardalarning oqarishi;

- migren;

- charchoqning kuchayishi;

- quloqlarda shovqin;

- ovqatlanmay qo'yish;

- doimiy uyquchanlik;

- havo etishmasligi hissi;

- bosh aylanishi;

- tezlashgan yurak urishi;
- libidoning pasayishi, erkaklarda jinsiy kuchsizlik;
- hayz siklning buzilishi;
- yurak etishmovchiligi.

Ishning maqsadi. Turli tahlillar va tekshirishlar asosida anemiyaning kelib chiqishi, ushbu holat asosan qaysi aholi qatlamida, necha yoshli insonlar shu kasallikka chalinganligi, qanday omillar sabab bo'layotganligi hamda kasallikni erta aniqlash va oldini olish choralarini ishlab chiqish.

Tadqiqot usullari. Agar mamlakatda yoki hududda temir tanqisligi anemiyasining tarqalishi 40%dan oshsa, JSST mutaxassislari aholi tomonidan eng ko'p iste'mol qilinadigan mahsulotlarni temir bilan fortifikatsiyasini o'tkazishni tavsiya etadilar. Anemiya rivojlanish xavfi mavjud aholidagi TTA profilaktikasi yanada samarali hisoblanadi.Ushbu turdagи profilaktika seplementatsiya deb ataladi va tashqaridan moddalar (temir, yod va boshqalar) qo'shilishi nazarda tutiladi..

Natijalar tahlili. Selementatsiyaga qamrab olingan homilador ayollarda temir dorilar homiladorlikning II va III oyligida kuniga 60mg/kg dozada va laktatsiya davomida 3oy qabul qilishlari kerak. AQSH da homiladorlik davrida temir dorisini kuniga 30mg/kg dozada qo'llaniladi.Temir yetishmasligiga aloqador anemiyaning oldini olish va davolashda qon yo'qotish ehtimoli bo'lgan manbalarni o'z vaqtida aniqlash va ularni bartaraf etish, homilador bo'lish va tug'ishni ma'lum darajada rejlashtirishga erishish, bekamu ko'st ovqatlanishga rioya qilish lozim.

